

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.113.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

HOSHIMXONOV MO‘MIN

**IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FIKRLAR NEGIZIDA TALABALARNING
MA‘NAVIY-AXLOQIY KAMOLOTINI TA‘MINLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(BOBORAHIM MASHRAB ASARLARI MISOLIDA)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
педагогических наук (DSc)**

Content of the abstract of doctoral dissertation (DSc) in pedagogy

Hoshimxonov Mo'min

Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish (Boborahim Mashrab asarlari misolida) 3

Хошимхонов Мумин

Совершенствование системы обеспечения духовно-нравственного развития студентов на основе социально-педагогических представлений (на примере произведений Бабарахима Машраба) 47

Khoshimkhonov Mumin

Improving the system of providing spiritual and moral development of students on the base of social-pedagogical considerations (example of Boborakhim Mashrab's works)..... 93

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 98

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.113.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

HOSHIMXONOV MO‘MIN

**IJTIMOYIY-PEDAGOGIK FIKRLAR NEGIZIDA TALABALARNING
MA‘NAVYIY-AXLOQIY KAMOLOTINI TA‘MINLASH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH
(BOBORAHIM MASHRAB ASARLARI MISOLIDA)**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSs) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.3.PHD/Ped1736 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.jdpu.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

To‘raqulov Xolbo‘ta Abilovich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yo‘ldoshev Qozoqboy Boybekovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Yarmatov Rahim Baxramovich

pedagogika fanlari doktori, professor

Taylonova Shohida Zayniyevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020. Ped.113.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi.4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73, faks: (872) 226-46-56; e-mail: jdpu_info@umail.uz Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o‘quv bino, 2-qavat, ma’ruzalari zali.

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (872) 226-13-57; 226-21-73 faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

O.X.To‘raqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, p.f.d., professor

N.H.Kushvaktov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash kotibi, p.f.n., dosyent

A.T.Nurmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.n., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda soʻnggi vaqtlarda dunyo xalqlarining maʼnaviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirish, xalqaro madaniy transformasiya jarayonini meʼyorlashtirish, umumbashariy qadriyatlarni yuksak maqomga koʻtarish, bashariyatni yagona maqsad sari birlashtirish va oʻzaro hamjihatlikka yoʻnaltirish kabi talablarga javob beradigan umuminsoniy xususiyatlarga ega konstruktiv maʼnaviy qadriyatlar tizimini ishlab chiqish dolzarb boʻlib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, jahonda yuz berayotgan globalashuv jarayonida maʼnaviy qashshoqlik, axloqiy nigilizm kabi umubashariy xarakterga ega boʻlgan illatlarga qarshi kurashishda vorisiylik va zamonaviylik prinsipini uygʻunlashtirgan holda olib borish, jumladan, ijtimoiy pedagogik fikrlar negizida talabalarning maʼnaviy – axloqiy kamolotini taʼminlash tizimini takomillashtirish, hozirgi davr yangiliklari bilan sintezlash zaruriyati pedagogik ehtiyojga aylanib bormoqda.

Dunyo pedagogikasida olib borilgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar Mashrab ijodida diniy-axloqiy, ijtimoiy-falsafiy, pedagogik tafakkurning yuzaga chiqishidagi oʻrni kabi masalalar haqida ilmiy maʼlumotlar berib borilayotganligi bilan qimmatli va ahamiyatlidir. XVII–XVIII asrlar Movarounnahr hududida ilm-fan rivoji Yevropaning koʻplab mamlakatlariga, shuningdek, Amerika Qoʻshma Shtatlarigacha yetib borganligi bilan, bu tadqiqotlar koʻlami jahon mashrabshunosligi taraqqiyotida Boborahim Mashrab merosining umuminsoniy qadriyatlarga daxldorligi va buning taʼlim-tarbiya sohasiga tatbiq etilishi bilan oʻziga xosdir.

Mamlakatimizda maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy taʼsirini oshirish, talaba-yoshlarni oʻzlikni anglash, milliy va umuminsoniy gʻoyalar asosida tarbiyalash, har qanday davrning eng muhim, dolzarb masalalaridan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Sharqning betakror mutafakkir allomalarining ijtimoiy-maʼnaviy merosiga uchinchi Renessans davrida eʼtiborning kuchayishi, Movarounnahr hududida mutafakkir allomalarining jahon ijtimoiy fani sohalari, shuningdek, pedagogika fani taraqqiyotiga qoʻshgan hissalari bilan ahamiyatlidir. Movarounnahrda yashab ijod etgan alloma, mutafakkir, murabbiy ustoz, ijodkor shoir Boborahim Mashrab, uning maʼnaviy merosi jahon tamaddunida, insonparvarlik va axloqiy qadriyatlarga sodiqliq, barkamol insonni tarbiyalash kabi gʻoyalarning mazmun-mohiyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritishda oʻziga xos qimmatlidir.

Ushbu dissertatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947–son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi”, 2020-yil PF–6017–son “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108–son “Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida taʼlim-tarbiya va ilm-fan sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995–son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2018-yil

23-iyundagi PQ–3080–son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish to‘g‘risida”, 2017-yil 18-apreldagi PQ–2894–son “Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘da Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida” gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilishida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi: Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹. Sharq sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan mutasavviflarning tasavvuf, axloq, o‘zlikni anglash, ma‘naviy merosni bugungi kun nuqtai nazardan o‘rganish, ularni umuminsoniy qadriyat sifatida Sharq mamlakatlari pedagog fikr rivojiga qo‘shgan hissasini, jahon tamaddunida tutgan o‘rnini aniqlash masalalari bo‘yicha dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalari jumladan, Indiana University of Bloomington(USA), University of Harvard, University of California, University of Michican, Universitat Bonn (Germany), University of Oslo (Norwegian), University of Vienna (Austria), University of Wester (Kanada), Institute of Ctntral Asia (Fransiya), Al-Ashar University (Misr), Istanbul Universiteti (Turkiya), Institut Vostochnix rukopisey RAN (Rossiya), Kazanskiy federalniy Universitet (Qozon), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyot universiteti, Nizomiy Ganjaviy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Bugungi kunda dunyoda falsafa va adabiyot tarixi fanlarida mutafakkir shoir Boborahim Mashrab ijtimoiy – ma‘naviy merosi, uning tasavvufiy qarashlari bo‘yicha ilmiy natijalar qo‘lga kiritilgan. Jahon fondlarida mavjud qo‘lyozma va toshbosma nusxalari asosida “Mabdai nur”, “Kimyo”ning turli variantlari yaratilgan. Bu xususda shoir asarlarini yaratilish tarixini tadqiq qilish, tarjima qilish ishlari amalga oshirilgan. Biroq, pedagogika tarixi fanida mutafakkir ijodining pedagogik jihatlarini ochib beruvchi tadqiqotlar yo‘q. Shu nuqtai nazardan, mutafakkir shoir Boborahim Mashrab ijodining jahon pedagogika tarixiga qo‘shgan hissasi, ta‘siri, uning she‘riyatidagi o‘ziga xos umuminsoniy xususiyat va g‘oyalarini, qadriyatlarini targ‘ib etuvchi tomonlarini global texnogen sivilizatsiya sharoitida o‘rganish axloq tarbiyasida o‘ziga xos muhim mohiyat kasb etadi.

¹Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шархи
<https://www.istanbul.edu.tr/http://www.washington.edu/>, [www.university of california.edu](http://www.universityofcalifornia.edu/), www.harvard.edu,
www.indiana.edu, www.intl.aks.ac.kr, www.uni-bonn.de, www.uio.no/english, [www.univie. ac.at/en](http://www.univie.ac.at/en), www.vu.lt,
www.bsu.edu.az, [www.kaznu.kz.](http://www.kaznu.kz), <https://islaminstitut.uz>. ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xalqimizning boy ilmiy – madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning 3000 yillik teran ildizlaridan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy merosni qadrlash va yuksaltirish haqidagi asarlari, konseptual g'oyalari barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirishda xususan, talaba-yoshlarga kasb tarbiyasi berishda mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir guruh yevropalik olimlar, jumladan, Martin Xartmann Berlindan chiqib, Yevropa va Osiyoni bog'lovchi ilmiy ishni amalga oshirish maqsadida Qora va Kaspiy dengizi orqali Tiflisdan Toshkentga kelib, Samarqand orqali Terek dovonidan oshib Qashqarga kelishadi. Xartmann guruhi 7 oy davomida Yorkent, Xo'tan, O'qsalur, Oqsuv shaharlarida reja asosida ish olib bordilar. 1903-yil fevral oyida Terek dovonidan oshib, Irkishtom va Olug'chat qishlog'i orqali O'shga, undan Toshkentga qaytib keldilar. Shu yil martgacha ekspedisiya ko'plab material to'plab, Berlinga qaytishdi. Ekspedisiya to'plagan xalq og'zaki ijodi va Mashrab haqidagi kitoblar nemis tiliga o'girilib, Mashrabning piri Ofoqxoja eshon shajarasi yoritilgan "Tazkirai Azizon" kitobi sharh va izohlar bilan g'arb tarjimashunoslari tomonidan Yevropada nashr etildi, bu islomshunoslik fanining katta yutug'i bo'ldi¹.

Xorijlik sharqshunos, pedagogik olimlar N.Veselovskiy, M.Xartmann, Herman Vamberi, A.P.Xoroshxin, V.L.Vyatkin, I.S.Likoshin, S. Uludog', L. Mironova, N.A.Pantusov, U.Ye. Ostroumov shoir va mutafakkir Mashrab ijodining ba'zi tomonlarini tadqiq etganlar².

O'zbekiston pedagogika tarixi fanining bir qator olimlari tadqiqotlar o'rganilayotgan mavzuning ba'zi jihatlarini oliy ta'lim darsliklarida ochishga harakat qilganlar³.

¹ Hartmann M. Das Buhwesen in Turkistan und Drucke Hartmans// Westasiatische Studien,1904, MSOS zu Berlin. – S69 – 104;Chademjai// Orientalische Literaturzeitung. (OLZ) – Berliv, 1903; 1903. – S. 361-368 ; Beitrage zur Kenntniss des Orient. // WZf.d.KM.B.1. – Berlin, 1903; Ostutrkische Handschriften der Sammlung Hartmans// Westasiatische Studien, (WAS) 1904, MSOS zu Berlin., – S. 1 – 21; Das Buhwesen in Turkistan und die turkishen Drucke der Sammlung Hartmans // WAS, 1903,MSJS zu Berlin – SS. 69-104; Zur Geshichte Euroasiens// Orient. Literaturzeitung, (OLZ) B. VII, Berlin , 1904. – S291 – 303; Ein turkisher TEXT aus Kaschar// Kelete Szemle , B. VI. Budapest, 1906. – S. 26-65; Die Geshichte von den 40 Leibern (cilton) . Ein turkishcher Text aus Jarkent// W.A.S. B. VIII. – Berlin, 1905. – S. 25 – 56; Eine Grabstelle aus Taschkent // O.L.Z., 20. 12. 1905, naechstes Heft;Arheologusches aus Russisch Turkistan// JLZ. B. VIII. – Berlin, 1905. B. IX, 1906; Hartmann M, Dr. Futterer . Durch Asian. – Berlin, Muhammad Sadiq. Taskirai asison von M. Sadiq. Ein Heiligenstaat in Islam. – Berlin: Wolf Preiser Verlag, 1905. – 300 S.

²Н.И.Веселовский. Восточные заметки-Петербург, 1895; Н.С.Ликошин. Дивана-и Машраб. –Т., 1910; В.А.Вяткин. Ферганский мистик Дивана-и Машраб. –Т., 1923.

³ 1.Тузувчи-муаллиф: профессор А.Зуннунов. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997. 2.А.Зуннунов, Б.Тўхлиев, Х.Маъсудов. Педагогика тарихи.-Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2002. 3. Рузматзода Қодиркул Рузмат ўғли. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожидagi ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси, 2020. 4. Ҳамроева Дилором Юнусовна. Бобораҳим Машраб ғазаллари поэтикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган десертация автореферати. – Тошкент: 2004. 5. Дўстқораев Б. Ўзбек насрида Машраб тимсолини яратиш тажрибаси ҳақида мулоҳазалар / Мустақиллик даври адабиёти. Тўплам.–Т.: Гафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. 6. Тоджиходжаев Мусо Муйдинбаевич. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида.Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Наманган, 2021. 7. К.Ҳошимов, С.Нишонова, М.Иномова, Р.Ҳасанов. Педагогика тарихи. –Т.: “Ўқитувчи”, 1996. 8. Масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев. Маънавият юлдузлари. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти,

Pedagogika fanlari doktorlari A. Zunnunov, B.To‘xliyev, X. Mas‘udov, K, K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanov.J.Hasanboyev, O.Hasanboyeva, H.Hamidov kabi olimlar Mashrab ijodining u yoki bu qirralarini ilmiy asarlarida yoritishga harakat qildilar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası” doirasidagi “Globallashuv sharoitida yangi taraqqiyot strategiyasi va falsafa fanlarining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma‘naviy-axloqiy kamolotini ta‘minlash tizimini takomillashtirish kontekstida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojidadagi mohiyatini keng jarayonda yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida ekanligini o‘ziga xos jihatlarini tarixiylik va pedagogik nuqtai nazaridan tahlil qilish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishning ijtimoiy jihatdan zarurligini zamonaviy pedagogik nuqtai nazardan yoritib berish;

talabalarga ma‘naviy-axloqiy tarbiya berishda Mashrabning ijtimoiy-ma‘naviy merosi didaktik ta‘lim asosi sifatida ekanligini ochib berish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishda Mashrab asarlarining o‘ziga xos jihatlarini va xususiyatlarini tahlil etish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishda Mashrab ijtimoiy-pedagogik qarashlarini tatbiq etish tizimini takomillashtirish tamoyillarni yoritish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishga oid Mashrab asarlaridagi didaktik omillarning konsepsiyasini yoritish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishning didaktik ta‘minotini aks ettiruvchi g‘oyalarni tadqiq qilish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini ta‘minlash tizimini bugungi kun doirasida ochib berish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimi metodlarini Boborahim Mashrab merosi misolida yoritish;

talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimini amaliyotga joriy qilishni tadqiq etish;

1999. 9. K.Hoshimov, S.Nishonova. Pedagogika tarixi.-T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. 10. Ойниса Мухаммадиева. Бедил ва ахлокий кадриятлар фалсафаси.-Т.: “YANGI NASHR”, 2016. 11. R.Orzibekov. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 12. Ўўлдош Жумабоев. Ўўбекистонда фалсафа ва ахлокий фикрлар тараққиёти тарихидан.-Т.: “Ўўкитувчи”-“Зиё ношир”, 1997. 13. А.Зуннунов, Б.Тўхлиев, Х.Маъсудов. Педагогика тарихи.-Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2002. 14. О.Ҳасанбоева, Ж.Ҳасанбоев, Ҳ.Ҳамидов. Педагогика тарихи.-Т.: “Ўўкитувчи”, 1997.

talabalar ma'naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimining pedagogik samaradorligini aniqlash mezonini ishlab chiqish darajasini aniqlash;

tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari, talablari tahlilini yoritish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Boborahim Mashrab ijodiy merosi bo'yicha yaratilgan manbalar, ilmiy tadqiqotlar va maqolalar, XVII – XVIII asrlar ijtimoiy – axloqiy hamda pedagogik merosi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti - Boborahim Mashrab va XVII – XVIII asrlar ijtimoiy – axloqiy, ma'naviy va pedagogik merosi xususiyatlarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning ob'yektivlik, tizimlilik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan, pedagog allomalar, ko'plab darslik saboqlar yaratgan kattaqo'rg'onlik So'fi Olloyor, chimyonlik Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo, namanganlik Boborahim Mashrab va boshqa mutasavvif murabbiylarning asarlarida ma'naviy meros, umuminsoniy qadriyat, gumanistik g'oyalar, axloqiy-ta'limiy qoidalar, ibrat va odob konteksidagi fikrlar aniqlangan;

Mashrab ijodining mahsuli bo'lgan asarlari, "Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish", uning pedagogik merosi, mutafakkirning she'riyatidagi didaktik g'oyalar, shoirning tasavvufiy, badiiy, pedagogik qarashlari aks etgan "Mabdainur", "Kimyo". "Qissai Vays ul-Qaraniy" kabi asarlaridagi ta'limiy, axloqiy qarashlar isbotlangan.

Mashrabning pedagogik qarashlarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ulug' mutasavviflar Ibrohim Adham, Boyazid al-Bistomiy, Mansur Halloj, Jaloliddin Rumiy, Shayx Shibliy, Robia Adaviya, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Hidoyatullo Ofoqxoja, Alisher Navoiy, So'fi Olloyor kabi allomalarning uning ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi dalillangan.

Mashrab asarlaridagi turli pedagogik janrlarning maktablarda o'rganilishi, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda uning ijodiga bo'lgan e'tibor va qiziqishlarning ortishi, xususan, Yevropaning ko'plab mamlakatlariga, hatto Amerika qit'asigacha yetib borishi, o'zbek she'riyati bilan boshqa xalqlarni tanishtirishi kabi omillar o'z isbotini topgan.

Mashrab merosidagi pedagogik fazilatlar, axloq va komil inson muammosi haqidagi g'oyalar, ma'rifiy fikrlar, tarbiyaviy, milliy-ma'naviy ahamiyati, umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan pedagog mutafakkir ijodining janr xususiyatlarini o'rganish metodikasi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ulug' murabbiy Boborahim Mashrab hayoti va ijodini, faoliyatini, o'sha davr jamiyatiga qo'shgan ta'siri doirasini o'rganishda XVII-XVIII asrlarda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat ravnaqi, shoir ijodiga ta'sir etgan muhitning o'ziga xos jihatlarining aksi, uning hayoti va ijodiy merosiga bo'lgan munosabatning ijtimoiy-pedagogik fikr rivojida

tutgan o'rnini o'rganishga qaratilgan metodologik tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mashrab merosida pedagogik fazilatlar, axloq va barkamol inson muammosi haqidagi g'oyalarga aniqlik kiritilgan, she'riyatining g'oyaviy yo'nalishlari va uning pedagogik qarashlaridagi ta'limotlar tahlil qilingan. Ayniqsa, Mashrab merosida katta iz qoldirgan kubroviya-naqshbandiya tariqatidagi umuminsoniy fikrlar, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatiga xos hamohanglik motivlari uyg'unligi keng yoritilgan.

Mutafakkirning ijtimoiy-ma'naviy, ma'rifiy va didaktik qarashlari, Markaziy Osiyodagi so'fiylik ta'limotining g'oyaviy va mafkuraviy jihatlari, uning merosidagi ilg'or fikrlar, O'zbekiston qahramoni Ibrohim G'afurovning fikricha, manifest g'azallarining jamiyat hayotidagi aksi, shoir ijodiyotidagi axloqiy, ta'limiy, ma'naviy, tasavvufiy hamda nasihatimiz, o'gitimiz, ibratimiz, didaktik qarashlar haqidagi mulohazalar ochib berilgan.

Mashrab ijodining xorijda o'rganilishi va umumta'lim maktablarda shoir she'riyatining janr xususiyatlari haqidagi ta'limotlarini o'rganishda Markaziy Osiyo va Yevropa xalqlari, xususan, o'zbek xalqi o'rtasidagi do'stlik, buyuk birodarlikning yorqin namunasi yuzaga chiqdi, Mashrab hayoti va ijodi nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham katta qiziqish uyg'otganligi keng holatda yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotjarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, uslubiy yondoshuvlar, usullar va ilmiy ma'lumotlarning manbalardan, ishonchli dalillardan respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy konferensiyalar, simpozium materiallari to'plamlari OAK ro'yxatidagimaxsus jurnallar hamda ilmiy jurnallarda nashr etilgan maqolalar, chop etilgan monografiyalar va u haqdagi taqrizlar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgan olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan harakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XVII-XVIII asrlar pedagogika fanining ulug' namoyandasi Boborahim Mashrab ijodiy merosining ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirishda, pedagogika tarixi uchun yangi ilmiy nazariy ma'lumot va xulosalar berishi, amaldagi mavjud darslik, qo'llanmalarining takomillashuvida pedagog murabbiylar va oliy ta'lim mutaxassislari uchun qo'llanma, manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, pedagogika tarixi fanlari bo'yicha ta'lim tizimining ma'lum yo'nalish va bosqichlarida talabalarga dars mashg'ulotlari olib borishda, maxsus kurs, amaliy mashg'ulot va seminarlar o'tishda, shu fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalar, darslik, majmualar, atamalar lug'ati yaratishda ommaviy axborot vositalarida Mashrab ijodini va XVII – XVIII asrlar she'riyatini targ'ib va tashviq qilishda unumli foydalanish mumkinligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish borasidagi takliflar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Boborahim Mashrab asarlaridagi ta'limiy, axloqiy qarashlar Jizzax viloyat "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining "Jamiyat barqarorligini ta'minlashda

yoshlar madaniyatini yuksaltirishning innovasion omillari” mavzusida 2021 yilda bajarilgan 07-raqamli grant loyihasi ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyat “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazining 2022 yil 1 apreldagi № 8 sonli dalolatnomasi). Natijada, Boborahim Mashrab tasavvufiy qarashlarining aholining ma’naviy madaniyati va fuqarolik mas’uliyatini oshirish borasidagi empirik tadqiqotlarni olib borishdagi amaliy ishlarda taklif-tavsiyalar ishlab chiqish masalalarida dissertatsiyadagi g‘oyalar muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan pedagog allomalar So‘fi Olloyor, Xojamnazar Huvaydo, Boborahim Mashrab asarlaridagi axloqiy-ta’limiy, ibrat va odob kontekstidagi fikrlardan Jizzax viloyat “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazining “Aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoatchilik ta’sirini oshirishning innovasion yo‘llarini joriy etish” mavzusida 2020-yilda bajarilgan 68-11/78-raqamli grant loyihasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyat “Istiqbol” mintaqaviy tadqiqot markazining 2022-yil 10-iyundagi №11 sonli dalolatnomasi). Natijada, Boborahim Mashrab tasavvufiy qarashlarining milliy ma’naviyatimiz targ‘iboti chora-tadbirlarida, ta’lim tizimida talabalarning ma’naviy madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatini oshirish borasidagi amaliy ishlarda taklif-tavsiyalar ishlab chiqish masalalarida muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, ta’lim islohotlari orqali uchinchi Renessans poydevorini yaratish, uni mazmun-mohiyatini jamiyatimiz a’zolariga singdirishga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2021- 2022-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tadbiriq etilgan. “Besh muhim tashabbus” doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar “Ajodlarga munosib voris bo‘laylik” mavzusida o‘tkazilgan ma’naviyat soatlarini tashkil etishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Asos: Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Jizzax viloyati bo‘limining 2022-yil 24-maydagi ma’lumotnomasi) Natijada, dissertatsiyada Boborahim Mashrab pedagogik qarashlarida ilgari surilgan takliflar, tavsiyalar yoshlarda yuksak ma’naviy fazilatlar, kattalarga hurmat, yoshlarga g‘amxo‘rlik, ezigulik va insoniylik, mehribonlik va bag‘rikenglik, Vatan va xalqqa sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat qildi.

Dissertatsiya ilmiy natijalari bo‘yicha mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yoshlarning hayotdagi o‘rni va rolini yanada oshirishga doir istiqbollarni o‘rganish masalasiga e’tiborni kuchaytirish mexanizmlarini ishlab chiqishda foydalanildi. (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2022-yil 06-iyuldagi dalolatnomasi.) Yoshlar ishlari agentligi jinoyatchilikka qarshi kurashish va xuquqbuzarliklar profilaktikasi ishlarini samarali tashkil etishda, tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadida maxsus yil dasturi loyihasini ishlab chiqishda Boborahim Mashrab pedagogik qarashlari tadqiqotidan munozara madaniyatini takomillashtirish maqsadida o‘quv-seminar, targ‘ibot tadbirlarida material (qo‘llanma) sifatida foydalanilmoqda. Natijada, yoshlarda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni anglash, yoshlarga oid davlat siyosatining mohiyati, ta’sirchanligi, amaliy ahamiyatini olib borishda qo‘llanildi.

Mumtoz adabiyotimizning yirik vakili bo‘lgan, otashin she‘riyati bilan nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharq mamlakatlarida mashhur bo‘lgan Boborahim Mashrab ijodini yosh ijodkorlarga yaqinlashtirish maqsadida Mo‘min Hoshimxonovning “Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma‘naviy-axloqiy kamolotini ta‘minlash tizimini takomillashtirish” (Boborahim Mashrab asarlari misolida) nomli dissertatsiyasida asoslangan ilmiy yangiliklardan ijodiy hamkorlik ishlarida foydalanildi. (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi 2023 yil 3 martdagi №01-03/347 sonli dalolatnomasi). Natijada, doktorlik dissertatsiyasida ishlab chiqilgan, asoslangan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi “Onajonim she‘riyat” to‘garagida foydalanildi. Boborahim Mashrab ijodining o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari, ularning falsafiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlarini yangicha nazariy-uslubiy yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etishda M.Hoshimxonovning ilmiy ishi qo‘llanildi.

Islomshunoslik muammolarini birlamchi manbalar va ajdodlarimiz diniy-ma‘rifiy merosini tizimli tahlil qilish asosida yosh avlodni, sog‘lom e‘tiqodni shakllantirish kabi mavzulardagi amaliy tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan. (O‘zbekiston musulmonlari idorasi 2023-yil 13-mart №744 sonli dalolatnomasi). Dissertatsiyada olingan quyidagi ilmiy xulosa natijalari amaliy grant yo‘nalishi uchun xizmat qilgan. Ilmiy loyihani bajarishda Boborahim Mashrab haqidagi tasavvufiy tushunchalar, Qur‘oni karim, hadisi shariflarga oid maqolalarni yozishda hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tafakkurida tutgan o‘rniga doir ma‘lumotlar O‘rta Osiyolik allomalar ijodida qo‘llanilgan atamalar qomusiga kiritilgan. Qomus materiallari movarounnahrluk olimlar ilmiy asarlarida keltirilgan atamalar bilan boyitilgan. Natijada, O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasi tasarrufidagi Toshkent islom instituti va boshqa oliy ta‘lim muassasalarida 2021/2022-o‘quv yili davomida Mashrab ijodiga bag‘ishlangan ilmiy maqola va risolalardan talabalarga zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar, pedagogika tarixi bo‘yicha mutaxassislik xususiyatlarini shakllantirish hamda diniy-ma‘naviy ta‘lim mazmunini takomillashtirish uchun foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 35 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 2 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 14 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan. Dissertatsiyaning hajmi 291 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi,

muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy va ularning ishonchliligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobasiyasi, nashr ettirilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalar ma'naviy-axloqiy kamoloti tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ilk fasli **“Talabalar ma'naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida”** asosiy e'tibor mavzuni birlamchi manbalar asosida ilmiy yoritishga yo'naltirilgan.

Boborahim Mashrab O'rta Osiyo, Afg'oniston va Sharqiy Turkistonda mashhur buyuk mutasavvif shoir, islom va uning yo'l-yo'riqlari, butun musulmon Sharqida yaratilgan tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi va bilimdoni. Butun hayotini sargardonlikda, dunyoni kezib, oddiy xalq orasida shuhrat qozongan, xalq bilan hamnafas bo'lib yashagan, xalq uchun qayg'urgan jahongashta, qalandar shoirdir. U Shoh Mashrab, Devona Mashrab, Telba Mashrab nomlarini byejiz olmagan.

Mashrab yoshligidan yoshi ulug' kishilarni shoshirib qo'yuvchi zukkoligi, o'tkir aqli va iste'dodi bilan tengdoshlaridan keskin ajralib turgan. Ma'naviy poklikni o'ziga shior qilib olgan Mashrab noinsoniy istaklardan to'la voz kechgan, oila va mol-dunyo qilmagan, shahar va qishloqlarni kezib, darbadarlikda hayot kechirgan. Mashrab qayerga bormasin, mehnatkash xalq manfaatini o'z manfaati sifatida qabul qilgan. Nohaqlikka murossasiz bo'lganligi zulmpesha amir-amaldorlarni, poraxo'r qozilarni va bid'atchi zohidlarni doimo tanqid qilganligi, haqoratlaganligi oqibatida shoir dorga osilib qatl etilgan¹.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy ahvolidan yuz berayotgan o'zgarishlar ham Mashrabning axloqiy fikrlariga ta'sir qildi. Mutafakkir asarlari erkin fikrlarga boy insonparvarlik g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan va u, shubhasiz, O'rta Osiyo ijtimoiy-falsafiy axloqiy hamda pedagogik tafakkur tarixida muhim rol o'ynadi.

“O'zbek pedagogikasi tarixi” muallifi, prof. A.Zunnunovning qayd etishicha, Boborahim Mashrab yashagan XVII-XVIII asrlarda Movarounnahrda siyosiy ahvol yomonlashib, mamlakat hududida siyosiy boshboshdoqliklar, urushlar avj olib, XVI asrning oxirida ashtarxoniyalar hukmronligi boshlandi. Bu davrda O'rta Osiyoda o'zaro nizolar yanada avj oladi. XVII asrda Imomqulixon, Subxonkulixonlar taxt uchun kurashni davom ettirib, mamlakatni birlashtirishga intiladilar, lekin o'zaro kelishmovchiliklar, urushlar, xalqni talon-taroj qilish yanada kuchayadi².

“Pedagogika tarixi” darsligining bir guruh muallif olimlari K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova, R.Hasanovlarning ta'kidlashlaricha, o'sha o'sha davr fan va madaniyat sohasida turg'unlik kuzatilgan.

¹ Мусурманов Эркин Раббимович. Раҳимбобо Машраб ва унинг бадиий адабиётдаги талқини. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд, 1995. –Б. 3.

² Тузувчи-муаллиф: профессор А.Зуннунов. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997. –Б.132.

XV asrning oxiri va XVI asr boshlarida Movarounnahrda bir yuz ellik yil hukmronlik qilgan temuriylar sulolasi inqirozga uchradi. Uning o'rniga shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Shayboniyxon (1451-1510) Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlat barpo qilishga uringan bo'lsa ham, uning o'limidan so'ng o'zaro urushlar avj olib ketdi va bu hududda uchta xonlik, avvalo, Buxoro va Xorazm, XVIII asr oxiriga kelib, Qo'qon xonligi qaror topdi. Ammo, xonliklar o'rtasidagi beto'xtov o'zaro urushlar mamlakatni ma'lum darajada xarob eta boshladi, fan va madaniyat sohasida turg'unlik yuz berdi.

“Pedagogika tarixi” mualliflari, pedagog olimlar A.Zunnunov, B.To'xliyev, X.Mas'udovlar Markaziy Osiyodagi pedagogik fikr taraqqiyoti haqida quyidagi fikrni ilgari surganlar: Markaziy Osiyoda XVI-XVII asrlarda xonlar o'rtasida urushlar kuchayishi natijasida ijtimoiy hayotda tushkunlik bo'ldi. Lekin shunga qaramay XIV-XV asrlarda madaniy hayotda erishilgan yuksalish davom etdi. XVI-XVII asrlarda ilm-fan, diniy, falsafiy, axloqiy-pedagogik fikr sohasida iste'dodli ijodkorlar-Saido Nasafiy, Turdi, Mashrab, So'fi Olloyor, Huvaydo kabi shoirlar yetishdi. Ular o'z asarlarida ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarni haqqoniy ifodaladilar, xalqni osoyishtalikka, tinchlikka, mehnatsevarlikka da'vat etdilar. XIV-XV asrlardagi pedagogik fikrni zamon ruhi, talabiga muvofiq tarzda davom ettirdilar¹.

“Pedagogika tarixi” darsligining tanikli pedagog olimlari, uning mualliflari XVII-XVIII asrlar Movarounnahr ta'lim tizimi, maktablar, o'quvchilar soni, qizlar maktabi, korxonalar, ko'zi ojizlar maktabi, dalailxona-kattalar maktabi va madrasani tugatib, Buxoro, Qo'qon, Turkiya va arab davlatlarida tahsilni davom ettirib, Movarounnahr ta'lim-tarbiyasi va ilm-faniga madrasai oliyalar, shamsiya-mantiq ilmi o'qitilishi, shariat-huquq, Muhammad G'azzoliy asarlarini o'rganish usullari, madrasa ta'limi xizmat qilishini tahlil etganlar.

XVII-XVIII asrlar Boborahim Mashrab yashagan davrda pedagog olimlarimiz qayd etishganidek: Bu davrda maktab va madrasalarda grammatika, handasa, mantiq, qiroat, tafsir, shariat, hikmat, islom tarixi va aqidalariga oid ilmiy-nazariy bilimlar, ish yuritish, huquqshunoslikka, savdo-sotiq ishlariga oid, meros va boyluk, taqsimot kabi boshqa o'nlab ilmiy bilimlar, dunyoviy hamda diniy bilimlar o'rgatilgan. Barcha madrasalarda majburiy fan sifatida «Qur'on», «Tafsir», «Odob as-solihin», «Maslak ul-muttaqin», «Sabot ul-ojizin», «Kimyoi saodat», «Hadis» o'qitilgan. O'qish muddati 15-20 yil bo'lgan. Masjidlar yonidagi maktablarda bolalarga 7 yil alifbe, abjad, Qur'on, farzi ayn, Chor kitob, Xoja Hofiz, Mirzo Bedildan savod o'rgatilgan².

Pedagog olim A.Zunnunovning e'tirof etishicha: XV asrdagi madaniy yuksalishning an'analari uzoq vaqt saqlanadi, ilm, din, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy fikrlar tarixida ayrim yirik mutafakkir shaxslar, iste'dodli ijod egalari, mashhur shoirlar yetishib chiqadi. Bu davrda o'zbek va tojik adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan, xalqning og'ir ahvolini, kayfiyatini orzu-umidlarini achinish bilan o'z asarlarida bayon etgan Saido Nasafiy, Turdi, Mashrab, So'fi Olloyor kabi shoirlar

¹ А.Зуннунов, Б.Тўхлиев, Х.Маъсудов. Педагогика тарихи.-Т.: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахирияти, 2002. –Б.58.

² O'sha asar. –B. 175.

tinimsiz ijod etadilar. Ular o‘z asarlarida ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar, bosqinchilikning shafqatsizliklari haqida haqqoniy kuyladilar, xalqni ahillikka, mehnatga, o‘zaro birlikka chaqirdilar¹. Chunonchi, bu davrlarda Mirzajon Sheroziy (1585 yilda vafot etgan), Yusuf Qorabog‘iy (1563-1647), Muhammad Sharif Buxoriy (1697 yilda vafot etgan) kabi olimlar o‘z asarlarida ilm-fanga, ma‘rifatga da‘vat etadilar, tafakkur, mantiq, bilim, ta‘lim-tarbiya masalalari, diniy urf-odatlar haqida fikr yuritadilar, adabiyot, she‘riyat, huquq va tarix sohalarida ham asarlar yaratadilar va o‘z davrining qomusiy olimi bo‘lib tanildilar².

U musulmon jamiyatining ma‘naviy hayotida yetakchi rol o‘ynagan buyuk avliyolar: Ibrohim Adham, Ibn Muborak, Robia Adaviya, Zunnun Misriy, Farididdin Attor, Abu Homid G‘azzoliy, Muhyiddin Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ubaydullo Axror, Maxdumi A‘zam Dahbediy-Kosoniyan‘analarini izchil davom ettirdi. Ularning ibratli hayot tarzi va tasavvufiy g‘oyalarini keng targ‘ib etdi. Jamiyatning ilm-ma‘rifatli, o‘ziga to‘q xos (xoja, sayyid, xon, beklar, mulla va h.k.)ni jamiyat taqdiri, hayoti va istiqboli uchun javobgar deb hisoblanadi.³

Pedagog olimlarning tahlillaricha, XVII-XVIII asrlar pedagogika tarixi darsliklarida e‘tirof etilganidek, So‘fi Olloyor, Xojamnazar Huvaydo, Boborahim Mashrab asarlari jamiyat turli tabaqa va qatlamlari ongi va tafakkuriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi, xalqni razolat va qabohatdan asrashga da‘vat etdi.

O‘zbek bolalari o‘qiydigan maktablarda “Kitobi Fuzuliy”, «Lison ut-tayr», «Devoni Alisher Navoiy», «Huvaydo», «Qissai devona Mashrab», So‘fi Olloyorning «Sabot ul-ojizin» kitobi o‘qitilgan.

XVII-XVIII asrlarda Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida ta‘lim-tarbiya, maktab, fan va madaniyat rivoji xaqida xulosa qilinganda, temuriylar, shayboniylar yashab o‘tgan davrga nisbatan, ashtarxoniylar davrida birmuncha turg‘unlik, ba‘zi sohalarida ortga ketish, depsinish holatlarini kuzatish mumkin.

“Pedagogika tarixi” kitoblarida ba‘zi o‘rinlarda XVII asrdan XIX asrga o‘tib ketish, bo‘shlik borligi holati kuzatildi. Faqat ta‘lim tizimida So‘fi Olloyor kabi mudarris adiblarining asarlari madrasai oliyalarda o‘rganilganligiga urg‘u berilganligi ko‘zga tashlandi. Mazkur tadqiqotda So‘fi Olloyorga zamondosh bo‘lgan chimyonlik Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo, ommani, jamiyatni otashin she‘riyati bilan bahramand etgan namanganlik Boborahim Mashrab hakida fikr yuritishga harakat qilindi. Shuningdek, davr pedagogikasi ravnaqi va taraqqiyotiga hissa qo‘shgan xonlar, hokimlar, beklar, ulkan me‘moriy obidalar yaratgan kosib va ustalar, adib va shoirlar haqida ham tadqiqotimiz doirasida ma‘lumot berishga urindik.

Bobning ikkinchi fasli “Talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishning ijtimoiy jihatdan zarurligi” deb nomlangan. Keyingi o‘ttiz yildan ko‘proq davrda mashrabshunoslikda chuqur tadqiqotlar olib borilib, «Mabdainur» va «Kimyo» she‘riy asarlar Boborahim Mashrabga taalluqli ekanligi ilmiy

¹ Тузувчи-муаллиф профессор: А.Зуннунов. Ўзбек педагогикаси тарихи. –Т.: “Ўқитувчи”, 1997. –Б.132.

² Ўша асар, ўша жой.

³ Рузматзода Қодиркул Рузмат ўғли. Хожамназар Хувайдо диний-мистик қарашларининг XVII-XVIII асрлар Марказий Осиё тасаввуфи ривожигаги ўрни. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси, 2020. –Б. 25.

asoslandi. Muhimi, Mashrabning ko‘plab yangi she‘riy asarlari topilib, jamoatchilik e‘tiboriga havola etildi

Jamiyatdagi va atrofdagi falokat va halokatlarni o‘z nafsi, o‘z fe‘lidan ko‘rish avliyolarning ulug‘larida bo‘ladigan bir holdir:

Kayda borgayman mani sharmandayi noma siyoh,
Osiy ummatga shafo‘at, yo Muxammad Mustafo!¹

Boborahim Mashrab asosan o‘zbek (turk) tilida, qisman fors va arab tillarida ham ijod qilgan.

Xatirchilik J. Yusupov: Mashrab – millatning azobda qolgan vijdoni. Bu vijdon sasi bizni mudom Ilohiy hurlikka da‘vat etadi»², -deganda haq edi.

Mashrab she‘riyati tadqiqotchisi J. Yusupov fikricha: Mashrab she‘riyati bu dunyodan norozi ketgan alamzada, pokdil insonlarning vijdon qichqirig‘i, nur qidirib, nurga talpingan yurakning nola-fig‘oni . Uning she‘rlarining har biri – bir laxcha cho‘g‘, yondiruvchi olov: «Boshimdan oyog‘im tutashib, xirmani otash».³

Mashrab ijodini o‘rganishda O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 9968 raqamli qo‘lyozmada «Mabdai nur», «Kimyo» asarlari Mashrabga taalluqli ekanligini isbotlovchi dalillar bor. Bu manbadan tashqari «Tazkirai Fahmiy», «Muntahab at-tavorix» (Muhammad Hakimxon To‘ra asari) va Mashrab zamondoshi, u bilan birga bo‘lgan Ishoq Bog‘istoniyning «Tazkirai qalandaron» asari g‘oyatda qimmatlidir.

Mashrab o‘zining g‘azal va ruboiylarida Ilohiy ishqni, Xudoga muhabbatini jozibali tasvirlagan, lekin ayni bir vaqtda real dunyoning ishlari, g‘am-tashvishlari, insoniy fazilatlarga ega bo‘lish, xalqning ahvolini yaxshilash muammolarini ham unutmagan. Fikh olimi va adabiyotshunos, pedagog Abdulhakim Shar‘iy Jo‘zjoniy fikricha, Mashrab nafaqat O‘zbekiston va O‘rta Osiyo hududida «vaxdat» (birlik, yakka-yagonalik, tanholik) irfoniy-falsafiy yo‘nalishining oxirgi namoyandasi hisoblanadi.

Boborahim Mashrab hayoti va ijodi bilan bir qator taniqli pedagog olimlar, ayniqsa, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, G‘aybullo Salomov, Vahob Rahmonov, Komiljon Isroilov, Jaloliddin Yusupov va boshqalar uzoq muddatlardan beri shug‘ullanib kelib, uning she‘riy to‘plamini tayyorlab, tarjimai holini yozib, kitobxonlarga taqdim etganlar.

Mashrab tadqiqotchisi, adabiyotshunos Hamroyeva Dilorom «Boborahim Mashrab g‘azallari poetikasi» mavzuida adabiyot tarixi doirasida nomzodlik dissertasiyasi himoya qilib, mashrabshunoslikka hissa qo‘shdi.

Mashrab merosi o‘zbek adabiyoti tarixida o‘z maqega ega. Mashrab she‘riyati mumtoz adabiyotning eng ilg‘or an‘analari zaminida shakllangan. Ayni paytda, u o‘ziga xos mohiyat va jozibaga ega she‘riyat. Shoir ijodida Ahmad Yassaviy, Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Lutfiy, Imodiddin Nasimiy, Alisher Navoiy, Shavkat Buxoriy, Hiloliy, Rabg‘uziy she‘riyatining ta‘siri ko‘rinadi. Mashrab ijodini shartli ravishda uch bosqichga bo‘lish mumkin.

¹ Mashrab. Куллиёт. Мирзо Кенжабек сўзбошиси. Т.: “Мухаррир” нашриёти, 2017. –Б. 27.

² Ж.Юсупов. Mashrab. Сўзбоши. Шеърлар. Тафаккур, 1997, 3-сон. –Б.60.

³ Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б. 5.

Birinchi bosqich, Namangan adabiy muhitida shakllangan Mashrab lirik shoir sifatida ko‘zga tashlanadi. Ikkinchi bosqich, Mashrab ijodiga Qashqar adabiy muhiti ham katta ta‘sir o‘tkazgan. Tasavvufiy istilohlarning Mashrab she‘rlariga chuqur kirib borishi, Jaloliddin Rumi, Hofiz Sheroziy, Lutfiy, Alisher Navoiyning irfoniy g‘azallariga ergashish shu davrlarga to‘g‘ri keladi.

Uchinchi bosqich, Ofoqxoja dargohini tark etgach, Mashrab qalandar libosida dunyo kezgan. Turli xalqlar madaniyati, adabiyoti, ta‘limotlari bilan tanishgan. Jumladan, Imodiddin Nasimiy hayoti va ijodining Mashrabga ta‘siri beqiyosdir. Nasimiy she‘riyati Mashrabni Mansur Hallojga yana ham yaqinlashtirgan.¹

U o‘z ruhining arshga ko‘tarilgani, kayxoniy parvozidan hayratlanuvchi Mashrab, ayni vaqtda falak zulmidan, «baxti qarolar podshohiga» aylangani, «jafodan monandi lol» bo‘lganini aytib noliydi, zohirni ko‘rib, botinni anglamaydigan kaltafahm ba‘zi mullolar, harom va poradan hazar qilmaydigan mullolarni hajv ostiga oladi, sof «zaminiiy» she‘rlar bitadi:

Mashrabo, har bir so‘zungdur gavhari qimmatbaho,
Aytma bu so‘zlarni har nokasga nodonlik bilan.²

Ofoqxoja bilan Mashrab o‘rtasidagi munosabatlar aslo g‘oyaviy dushmanlik tarzida kechmaganligini – o‘z hayotini, barcha fazilatlarini, hatto «har nafasi»ni piringning sharofatidan, deb ochiq -oydin ta‘kidlaydi.

Har nafaski, manda bor bo‘ldi madad Ofoqxojam,
Bo‘lmasa bir quruq yog‘och, dashtda qo‘xsor o‘zum.

Fitratning «Mashrab» nomli tadqiqoti XX-asrning 20-yillari oxirida Mashrab shaxsi va ijodi haqida noto‘g‘ri tasavvurlar kengaygan bir paytda yaratildi. V.Vyatkin, G‘afur G‘ulom va boshqa kishilar shoirni «Ikki Mashrab»ga ajratishga urinib, uning «Mabdai nur» asari bilan tasavvufiy she‘rlarini boshqa Mashrabga «in‘om» qilayotgan bir paytda bunday ilmiy kashfiyotlar noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib bergan maqoladir. Shuning uchun ham u mashrabshunoslikda to hozirga qadar o‘z kuchini yo‘qotmagan chuqur tadqiqot sanaladi.³

Fitrat – Mashrab asarlari bo‘lgan «Mabdai nur», «Kimyo» asarlarini haqiqiy namanganlik mutasavvif shoirga tegishli ekanligini isbot etadi: Uning bu kun bizga ma‘lum bo‘lgan asarlari maqomatida unga nisbat berilgan she‘rlar, 1906 yilda Qozonda bosilgan «Boqirg‘on kitobi»da Mashrab taxallusli parchalar ham Mashrabka nisbat berilgan «Mabdai nur» va «Kimyo» ismli manzub kitoblardan iboratdir.

G‘azaldan so‘ngra yana Rumiyning masnaviysidan bir bayt berilib, yuqoridag‘i tartib bilan davom etiladi. «Mabdai nur» kitobi uch jild bo‘lub, «Masnaviy»ning 1-2-3-jildlarig‘a bog‘langan.

Yetushti Mashrab o‘shal koni Mabdai nurg‘a,
Valiyi Xojai Ofoq shohni hurmatindandur.

¹ Хамроева Дилором Юнусовна. Бобораҳим Машраб ғазаллари поэтикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент: 2004. –Б.18.

² Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б. 129.

³ Дўстқораев Б. Ўзбек насрида Машраб тимсолини яратиш тажрибаси ҳақида мулоҳазалар / Мустақиллик даври адабиёти. Тўплам.–Т.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. –Б. 94.

Bu esa Ofoq Xo‘janing muridi ekanini, ya’ni manqaba qahramoni bo‘lg‘an Boborahim Mashrabning o‘zi ekanini ochiq ko‘rsatadir¹.

«Mabdai nur» 176 ta diniy, afsonaviy, axloqiy hikoyatlardan, 30 ta ta’limiy parcha, 35 ta g‘azal, 2 ta o‘zbekcha, 1 ta arabcha mustazoddan iborat.²

Mashrabshunos olim Ismatulloh Abdulloh «Mabdai nur» Mashrabga tegishli asar ekanligini isbotlash uchun ko‘p ter to‘kdi, chala bo‘lsa-da, uni nashr etdi.

Buxoroda bosilgan «Mabdai nur»ning oxirida «Kimyo» ismli bir kitob bor. Aruzdag‘i «hazaj» bahrining «mafoiylun, mafoiylun fa’uvlun» vaznida yozilg‘an turli axloqiy hikoyalardan iboratdir. Bu asar uslub yog‘idan «Mabdai nur»dan ayrilmaydir. Lekin, buning ham haqiqatan Mashrab tomonidan yozilib-yozilmaganiga oid qoniqarli bir ishorat va qaydg‘a uchray olmaganimizni e’tirof qilamiz.³

Ismatulloh Abdulloh Mashrabning «Kimyo» asari haqida «Ko‘ngilni uzma shundog‘ kimyodin»⁴ nomida maqola e’lon qildi. Muallif mazkur maqolada mis, qalay ma’danga, qimmatbaho iksir toshga aylanishi uchun sayqallanishini, tozalanishini aytadi.

O‘tgan asrda Mashrab she’riy to‘plamlari nomigagina nashr etildi yoinki uning ijodiga bir tomonlama munosabatda bo‘lindi, deyarli asrning so‘nggi choragida uning ijodiga bo‘lgan e’tiborni mustasno etmaganimizda hayoti, faoliyati juda kam o‘rganildi. To‘g‘ri, 1959, 1963, 1970, 1980, 1990-yillarda Mashrabning she’rlaridan mo‘jaz majmualar, keyinchalik devonlar nashr etildi. 1990 yili xatirchilik Mashrab tadqiqotchisi Jaloliddin Yusupovning sa’y-harakati tufayli «Mehribonim, qaydasan?» she’rlar to‘plami chiqdi. Bu orada mustaqillik sharofati bilan «Qissai Mashrab», «Shoh Mashrab qissasi» va boshqa badiiy, ilmiy asarlar e’lon qilindi. Nihoyat, 2006 yil uzoq yillik mehnatning natijasi yuzaga chiqib, uning «Devon»i qo‘limizga tegdi. Bu ishni ham zahmatkash, bardoshli va olijanob inson, G‘aybullah as-Salom ta’biri bilan aytganda, «chinakam xalq akademigi», mashrabshunos Jaloliddin Yusupov qariyb 30 yil davomida tartib, sayqal berib uni nashrga tayyorlagan.

Umri ziddiyatlarda o‘tgan Mashrab qiyofasini G‘aybulloh as-Salom hayajon bilan tasvir etgan va Jaloliddin Yusupovning 1990-yilda chiqarilgan to‘plamiga munosabat bildirgan: «1990 yilda shoirning to‘rt yuz sahifalik «Mehribonim, qaydasan» degan kattakon kitobi bosilib chiqqan edi. Sakson ming nusxa sal fursatda tarqalib ketdi. Mazkur saylanmani nozikta’b, ash’orfahm, bilimdon shogirdim Jaloliddin Yusupov nashrga tayyorladi. Abdulla Oripov tili bilan aytganda «Kimsasiz shoirlar piri»ga aylangan shoir merosiga yana xalq ega chiqdi, G‘aybulloh as-Salom ta’biri bilan aytganda, Mashrab “tom ma’noda xalq shoiri”ga aylandi.

¹ Ўша асар. –Б. 104.

² Бобораҳим Машраб. «Мабдаи нур». –Т.: «Фан», 1994. –Б. 7.

³ Абдурауф Фитрат. Машраб. Танланган асарлар. II жилд. – Т., Маънавият, 2000. –Б.105.

⁴ Бобораҳим Машраб. Мехрибоним, қайдасан. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б. 5.

Boshqa olimlardan farqli holda Ismatulloh Abdulloh va Jaloliddin Yusupov «Mabdai nur»ni o‘rganib, uning Mashrabi Ro‘ziboy Soniyga taalluqli emas, haqiqiy Boborahim Mashrab asari ekanini isbotlashdi.

«Mabdai nur» muallifi Boborahim Mashrab ekanini isbot qilgan va quyidagi fikrni keltirgan:

1. «Mabdai nur» Mashrabning asaridir. Bu kitob Mashrabning piri Hidoyatulla Ofoqxojaning topshirig‘i bilan yozilgandir. Kitobni yozishga kirishishdan avval Mashrab Jaloliddin Rumi va Ahmad Yassaviy janoblarining ruhoniylarining ruxsatlarini oladilar. «Mabdai nur» Jaloliddin Rumiyaning «Ma’naviyi masnaviy»laridan tazmin qilingan.

Fors va turkiy tillar bilimdoni Hamidjon Homidiy ham «Mabdai nur»ning Boborahim Mashrab asari ekanini har bir chiqishida va ilmiy tadqiqotlarida ta’kidlab kelmoqda.

2. Mashrabning «Kimyo» asari «Mabdai nur»ning mantiqiy davomidir. Bu asar tarkibida 22 ta kimyo bo‘lib, har bir kimyo alohida-alohida bo‘limlardan iborat. «Mabdai nur» va «Kimyo»da Mashrabning bizga tanish g‘azallari berib borilgan.

3. «Qissai Vaysul Qaraniy» haqida to‘xtalgan Jaloliddin Yusupov uning 180 bayt, 360 misrali masnaviy ekanini izoh etib, «qissa» shaxsiy kutubxonasida 6-raqamli qo‘lyozma ekanini ta’kid etgan.

4. «Qissayi Merojnomayi» Rasuli Akram (s.a.v) haqida bo‘lib, bu «Qissayi Mashrab» qo‘lyozmalarining hammasida bo‘lib, u mustazod janrida yozilganini bildirgan.

J.Yusupov Mashrab she’rlarini parokandalikka yuz tutishidan saqlab qolib, nashr ishlariga ko‘maklashgan bir guruh ijodkorlarga, «Mashrabni tushunish uchun Mashrabning dardini, Mashrabning alamlari markazini topish kerak»¹, degan so‘zni ehtirom bilan keltirgan.

«Devon»dan Mashrabning avval e’lon qilingan, lekin totalitar tuzum davrida ba’zi bayt va misralari olib tashlangan, endilikda to‘ldirilgan, buning ichida hali e’lon qilinmagan jami 380 ta g‘azal, 21 ta mustazod, 4 ta murabba’, 78 ta muxammas, 7 ta musaddas, 2 ta musabba’, 1 ta musamman, 1 ta masnaviy, fardlar, to‘rtliklar, lug‘at va izohlar o‘rin olgan.

J.Yusupovning olimlik salohiyati shunchalik cho‘ng (sarbaland)ki, rosa 50 bet (550-betdan 600-betgacha) lug‘at va izoh tuzgan.

Shuni e’tirof etishimiz kerakki, sovet davrida Mashrab ijodiga adabiyotda sinfiylik va socialistik realizm nuqtai nazaridan butunlay noto‘g‘ri yondashildi. Uning ijodiga Ahmad Yassaviy, So‘fi Olloyorlar qatori qarab uni goh so‘fiy shoir, asarlari diniy-tasavvufiy ruhda yozilgan, o‘rganishga arzimaydi, xalq ongini zaharlaydi, degan fikrlar asosida shoir ijodini o‘rganishdan cho‘chib, unga haqqoniy, ilmiy yondashilmadi. Goho esa Mashrab dahriy shoir, o‘z asarlarida din aqidalariga qarshi kurashgan, deb shoirning tasavvuf ruhida yozilgan she’rlarini butunlay noto‘g‘ri talqin qilindi.

¹ Ўша манба, ўша жой.

Mashrab ijodini to‘g‘ri o‘rganish, haqqoniy, ro‘yi rost, ilmiy asosda tadqiq etish va o‘zbek pedagogikasida unga buyuk shoir sifatida o‘z o‘rnini berish payti keldi.

Birinchi bobning uchinchi fasli “Talabalarga ma’naviy-axloqiy tarbiya berishda Mashrabning ijtimoiy–ma’naviy merosi didaktik asos sifatida” deb nomlangan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma’lum.

Mutafakkir shoir Mashrab shaxsiyati turli manolib, rivoyat, qissalar orqali bizning asrimizgacha yetib keldi. XX asrda ham o‘zbek yozuvchi va shoirlari ijodida shoir siymosi talqin etildi va bugungi kunda ham otashzabon mutafakkir va uning shaxsiyati haqida badiiy asarlar yaratilmoqda.

Dasrlab Ishaq Bog‘istoniyning «Tazkirai qalandaron» asaridan naqlar «Sharq yulduzi» 1990-yil 8-sonida bosilib chiqdi. Xalq kitoblari turkumida «Shoh Mashrab qissasi» 1991-yil «Sharq yulduzi» jurnalining 6-sonida chop etildi. U o‘sha yili «Sharq» nashriyotida alohida kitob holida bosildi.

1992-yil «Yozuvchi» nashriyotida «Qissai Mashrab» nashr qilindi.

1992-yil Mashrab yubileyi munosabati bilan Fransiyada «Qissai Mashrab» nashr qilingan.

Rus sharqshunoslari tadqiqotlarida Mashrab nomi bilan bog‘liq qaydlar XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin uchraydi. A.P.Xoroshxin, V.P.Nalivkin, N.I.Veselovskiy, N.N.Pantusov, N.S.Likoshin, V.L.Vyatkin, A.Karsev, L.V.Dmitriyeva, G.P.Snesarov kabi olimlar shoir hayoti va ijodini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shganlar.¹

Mashrab N.Veselovskiy ta’kidlaganidek, chuqur ehtimom va e’tibor bilan o‘rganishga munosib shaxsdir.²

Erkin Musurmanov tadqiqotining «XVII-XIX asrlarda yaratilgan badiiy asarlarda Mashrab obrazi talqini» deb nomlangan II bobida «Devonai Mashrab» qissasi «Devoni Mashrab» deb atalishi noto‘g‘ri ekanligini, devonlarga qissalardagi kabi nasriy hikoyalar kiritilmaydi, degan to‘g‘ri xulosani bergan: Klassik adabiyotda «devona» laqabi butun fikru dunyosi faqatgina yorga yetishish bilan band, ko‘rinishi g‘aribu, ammo ko‘ngli pok, moddiy talab va istaklardan voz kechgan «zohiran malomatengez, botinan – sog‘u-salomat» bo‘lgan haqiqiy oshiqqlarga ham qo‘llangan. Mashrabga nisbatan «devona» laqabining qo‘llanganligini nazarda tutsak, asarning «Devonai Mashrab» deb nomlanishi asosli bo‘ladi.³

«Devonai Mashrab» qissalari ildizida «Devoni Mashrab» turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak bo‘ladi. Buni J.Yusupov shunday izohlaydi: «Har bir rivoyatdan so‘ng «Shoh Mashrab yoki eshoni Shoh Mashrab jununlari ziyoda bo‘lib,

¹ Хамроева Дилором. Боборахим Машраб ғазаллари поэтикаси. Фил.фан. ном. илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. Тошкент. 2004. –Б. 4.

² Юкоридаги манба. –Б. 7.

³ Мусурманов Эркин. Раҳимбобо Машраб ва унинг бадий адабиётдаги талқини. Фил. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд, 1995. –Б. 8.

bu abyotni o'qidilar» qabilidagi va shu she'rdan so'ng esa «Alqissa, Shoh Mashrab...» so'zlari bilan yangi rivoyat boshlanadi. Bu holat «Devoni Mashrab» kitoblarining hammasi uchun ham xosdir.

«Qissai Mashrab»da shoirning Ofoqxoja xonadonida uch yil o'tin tashiganligi, uch yil sanoch – meshkobda suv tashiganligi, bir yil hazrat ostonasida qoravullik qilgani aytilgan. Shu bilan birga, u bu dargohda tasavvuf ta'limoti sir-asrorlarini xonadon xojasidan mukammal o'rganishga harakat qilgan. Bu uning jismoniy va ruhoniy qobiliyatini chiniqtirishga, uni tasavvufiy g'oyalar bilan sug'orishga tayanch, poydevor vazifasini o'tagan. Cho'ri qiz bahona bo'lib pir dargohini tark etgach, qissada qayd etilishicha, Mashrab G'ulja shahriga kelib, uning hokimi, uning xotini va qizini musulmon diniga kiritgan. Mashrab G'ulja hokimining uch yil xizmatini qilgan.

Mashrabning Pirmat Setoriy bilan uzoq safarga chiqishi 1691-yildan boshlangan. Ilmiy manbalarda bu safar haqida deyarli ma'lumot uchramaydi. Bu hol tadqiqotchi E.Musurmanov fikricha, Mashrab haj qilish niyatida safarga o'tlanib Xorazmga borgan, u yerda Pahlavon Mahmud qabrini ziyorat qilib, Xorazmda ancha turib qolgan, Xorazm musiqasi va madaniyati bilan tanishgan.

Mashrab u yerdan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga borib, savdo-sotiq qiluvchi savdogarlarga ergashib, suv yo'li bilan, ya'ni Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjonga, u yerdan Turkiyaga o'tgan. Madaniy hayot bilan yaxshi tanishgan, ma'naviy hayotda katta rol o'ynagan, mavlaviya, bektoshiya, hurufiya diniy oqimlarini o'rgangan. Jaloliddin Rumiyning mashhur «Masnaviyi Rumi» asarini mutolaa qilib, o'zining «Mabdai nur» asarini yaratgan, she'rlaridan ta'sirlanib ijod qilgan. Turkiyada Mashrab hurufiy shoir Imodiddin Nasimiy faoliyati, qismati bilan tanishgan, uning she'rlariga vazn va radiflari o'xshash she'rlar, naziralar yozgan. So'ngra Arabistonga o'tib, Makkani tavof qilgan, rasulullohning va qizlari Fotimaning ziyoratgohlarida bo'ladi. U yerdan Karbalo dashtiga o'tib, Imom Husayn qabrlarini ziyorat qilgan. Haj amallarini bajargan va aziz avliyolarning qabrlarini ziyorat qilgan Mashrab Hindistonga keladi.¹

Tadqiqotchi D.Hamroyevaning talqinicha, qissada «Qonimni to'kar emish, Balx shahrida Mahmudxon», «Chun qo'lim birla oyog'im bog'lamoq hojat emas», «Ey musulmonlar, qazo topsam kerak» kabi misralarda Mahmud qatag'on nomi ham ko'p bor tilga olinadi.

Mashrab bilan Mahmudxon va saroy ayonlari, ulamolar orasida g'oyatda keskin va shiddatli munozara bo'lib o'tadi. Mashrab o'z javoblarida hech tap tortmay podsho saroyini najosatxonaga, taxtni esa shu najosat ustiga qurilgan ravoqqa, Mahmudxon va amaldorlarini najosatxo'r o'laksaxo'rlarga, ulamolarni esa zulukka o'xshatadi.

Mahmudxon aydiki: «Bu devonai ahli kufforni xos zindonga tashlab, to jonlari xalqumlariga kelib, onalaridin dunyo yuziga tavallud topqonlarig'a pushaymon bo'lmag'uncha azob qilg'aysizlar. Ersa muddati bir oy har kecha zindon jallodlari hazrati Shoh Mashrab va hamrohlarini behad azoblarg'a duchor qilur erdilar».²

¹ Мусурманов Эркин. Раҳимбобо Машраб ва унинг бадиий адабиётдаги талқини. Фил. фан. ном. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд, 1995. –Б.16-17.

² Зокиров М. Эрк ва маърифат куйчилари. –Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. –Б. 39.

Mashrab o‘limni bo‘yniga olgani holda deydi:
Kelubdur ostonangga, ki navmid etma Mashrabni,
Pushaymondan na sud emdi, kushandam Balxda Mahmuddur.

Anda jallodlar Shoh Mashrabni dorga olib borurda tamomi xaloyiq navhau zori qilib borur erdilar. Shoh Mashrab jonlarga aydilarki: «Ey jon, kishi ma’shuqini ko‘rgani borurda ham qo‘rqormu?» deb jonlariga quvvat berib, yo‘l borurda bu g‘azalni o‘qudilar:

Har kishining dardi bo‘lsa yig‘lasun yor oldida,
Qolmasun armon yurakda qilsun izhor oldida.
Ey Mashrabi devona, mardona qadam qo‘yg‘il,
Dor ostiga borg‘anda, bo‘lma yana hayrona,¹ –

deb, andin so‘ng shoh Mashrab jallodlarga aydilarki: «Ey jallodlar, manga tig‘ solursizlar, o‘shal tig‘ solg‘anda bir solinglar, ikki bor solmanglar». Hazrati sohibqiron podshohim aytur erdilar: «Ey Mashrab, san shahid bo‘lursan», – deb marhamat qilib erdilar. Man aytur erdimki: «Ey taqsiri podshohim, man shahid bo‘ladurgan bo‘lsam, sizning tig‘i muhabbatingizdin umidvordurman, – deb erdim. Shul vaqtda qalamtaroshlarin berib erdilar. O‘shal qalamtaroshni jandamni orasig‘a qo‘yub kiyib erdim», – deb jandalarini so‘kib, shul tig‘ni ko‘zlariga surtib, yig‘lab aydilarki: «Hay darig‘, o‘shandog‘ sohibqiron podshohim aytib aydilarki: – mani kushandam Qoratog‘da, sani kushandang Balx shahrida Mahmudxon, deb erdilar». Anda shoh Mashrab hazrati sohibqiron podshohimning sha‘nlariga bu g‘azalni o‘qudilar:

Mashrabo mahshar kuni yig‘lab yaqongni pora qil, deb shoh Mashrabni o‘zlari bir juftak urub dorga osildilar. Tig‘larini jallodlarga berdilar, o‘zlari bu g‘azalni o‘qub ado qildilar:

Kel ey jismim, shahodat tig‘iga emdi yaro bo‘lg‘il,
Husayn ibn Alidek san shahidi Karbalo bo‘lg‘il.
Mani Hoshim ul Qurayshidan judo bo‘ldum netay,²
Ajoyib xush muborak bu o‘lim kim, boshima tushti,

Balx ulamolari fatvosi bilan Mahmudxon Mashrab va yana ikki qalandarni dorga osib o‘ldiradi.

Mazkur hodisani boshqa tarixiy manbalar u yoki bu tarzda tasdiq etadilar. Chunonchi, bu hodisani Abdul Mutallib Xo‘ja Fahmiy o‘z majmuasida shunday bayon qiladi: «Mashrabni 1123 hijriy yilda ulamo va hukamolarning fatvosi bilan Mahmudxon Balxda shahid qildi.³

... Necha Mansur o‘ldi irshodmand muhabbat yo‘lida,
Manga ham dor qurulg‘onda yetar bu qismatim.

XVIII- XIX – XX asrlarda ham «Qissai Mashrab» xalqimiz tomonidan sevib o‘qilgan asarlar sirasiga kiradi. Bu asar «Devonai Mashrab», «Shoh Mashrab», «G‘azali eshoni shoh Mashrab», «Eshon Mashrab», «Eshon shoh Mashrabi devonai Namangoniy», «Muxammasi shoh Mashrab» kabi nomlar bilan kitobat qilinib, mashrabxonlarning sevimli asari sifatida katta shuhrat qozonib, o‘qib, o‘rganib kelingan.

¹ Қиссаи Машраб. – Тошкент: Ёзувчи, 1992. –Б. 162.

² Ўша асар. –Б. 163.

³ Мажмуаи Абдул Муталлиб Хўжа Фаҳмий. –Т.: 1992. –Б. 123.

Akademik B.Valixo‘jayev fikricha, «qissa» xalq kitoblari talablari bo‘yicha qayta ishlanib, unda shoirning badiiy siymosi yaratilgan.

«Qissai Mashrab»ning kulminasion nuqtasi, uning Mahmud qatag‘onbiy bilan jur‘atli munozarasi va xonning uni zindonband qilib, dorga osishi voqeasi bilan xotima topgan.

Alhol, Mahmud qatag‘on Mashrabni o‘limga hukm etsa-da, uni 40 kun zindonband qilib, ahli ulamo oldida tavba qilsa, gunohini afv etib, ozod qilib yuborishini bildirgan. Ammo Mashrab tupurgan tupugini qaytib olmasligini, dor ostida ham Haq so‘zdan qaytmay Mahmud qatag‘ondan najot va uzr so‘ramagan. «Qissa»da aytilishicha, qatag‘on ulamolarga ko‘zimni qisib aytmabmidim, shuncha gunohkorni gunohini so‘rab olasizlar, nega Mashrabning gunohini so‘ramadinglar, endi tongla qiyomatgacha Alloh va bandalari oldida yuzim qora bo‘ldi deya, afsus-nadomat chekkan.

Mashrab obrazi «qissa»da otashzabon shoirgina emas, qabohat va jaholat, adolatsizlik va zo‘ravonlikka qarshi dovyurak shaxs va hech ikkilanmay xalq tomonida turib razolat va safolatga qarshi kurashuvchi siymo sifatida ham tasvirlangan.

Tadqiqotning **“Ijtimoiy–pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma’naviy–axloqiy kamoloti tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobning ilk faslida “Talabalar ma’naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishda Mashrab asarlarining roli va o‘rni” mavzusida fikr yuritilgan. Insoniyat olamida go‘zal xulq egalari ko‘plab bo‘lgan. Shuning uchun ham ularni go‘zal axloqli, odobli, husni xulq kishilar deyilgan. Payg‘ambarimiz Rasululloh bunday xislatlarning timsoli edilar. “U kishining husni xulqlari har jihatdan kamolotga yetgan, mukammal edi. Alloh taolo Nur surasining to‘rtinchi oyatida payg‘ambar alayhissalomni maqtab: “Sen chindan ham yuksak axloq egasisan” degan. Hazrati Oysha raziyallohu anho: “Payg‘ambar alayhissalomning xulqi-Qur‘on edi.

Jo‘zjoniy “Tasavvuf va inson” kitobida mutasavvif alloma va shoirlar haqida shunday fikrni yozadi:

So‘fiylar va oriflar ham ularni qishriylik (yuzakilik) va tushunmaslikda ayblaganlar. Natijada mashhur so‘fiylardan Xusayn ibn Mansur Halloj (v. 922 y.), Shihobuddin Suhravardiy (1145-1191 y.), Imodiddin Nasimiy (v. 1417 y.) va Boborahim Mashrabni o‘ldirishga hukm chiqarganlar. Mashhur orif shoir Jaloliddin Rumiy o‘z masnaviysida ular haqida bunday deydi. Tarjimasi: Biz Qur‘onning mag‘zini chaqib olib, boshqalarga uning po‘chog‘ini qoldirdik¹.

Mashrab axloqi ham o‘z salafлари axloqiga monand axloqdir. Ozarbayjondagi hurufiyalar ham tasavvufdagi panteistik ta‘limotni qabul qilgan bo‘lib, ular inson va uning qudratiga yuksak baho bergan edilar.

“Ko‘ngil-dinning mohiyatidir”, deydi Lyudvig Feyerbax. Tasavvufda ko‘ngil-haqiqiy ishqning mohiyati. Ma‘lumki, so‘fiylar odamlarni axloq va hissiyotlariga qarab uch toifaga ajratganlar.

¹ Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввув ва инсон. –Т.: “Адолат”, 2001. –Б. 28-29.

Birinchi toifa-nafs bandalari. Ikkinchi toifa-qalb odamlari. Uchinchi toifa-Ruh odamlari. Mashrab tasavvuf axloqning uchinchi toifasiga mansub, u borlig'ini Haq yo'liga tikkan so'fiy mutafakkirdir.

Mutafakkir she'riyatining mavzusi Ilohiy ishq masalasi bo'lsa-da, uning ijtimoiy-axloqiy qarashlari ham shu muammoga bo'ysunadi, mazlum mehnatkashlar ommasi, kosiblar, hunarmandlar, dehqonlar faryodining aks sadosidek yangraydi:

Maningdek g'amda qolg'on, dilparishon o'lmasun hech kim,
Ko'zi chun termulub yo'llarda hayron o'lmasun hech kim,
Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin,

Ki, man har qayga borsam, dod etarman, dod dastingdin, - deya bir alamzada insonning yurak nolalarini ham ifodalay oladi. Lekin bularning hammasi bir-birini taqozo etadigan, bir-birini to'ldiradigan she'rlar. Chunki hammasida ham kurashchi insonning, na falaku taqdir, na yerdagi tartibotlar bilan kelisholmaydigan jasoratli ruhning nidosidir. Shuning uchun Ibrohim Adham axloqi, Mansur Halloj ta'limotini Haq bilib, tarannum etgan Mashrab g'oyalari dunyoparast hokimlar va johil ulamolarga yoqmadi, ularni tubsiz tahlikaga soldi. Ular Mansur Hallojdan qanday o'ch olgan bo'lsalar, Mashrabni ham shunday qatl etib, so'ng tinchidilar.

Mashrab zo'ravonlik va johillik, munofiqlik va behayolikka asoslangan hukmron tabaqa axloqiga haqqoniylik va sadoqat, mehnatsevarlik va kasb-hunar ahlini ardoqlash, o'zaro yordam va do'stlik fazilatlarini ustun turuvchi mehnatkash-hunarmandlar, kosiblar, dehqonlar axloqini qarama-qarshi qo'yadi.

Islom dinida ota-ona muqaddas hisoblanib, uni hurmat qilish, e'zozlash farzandlar uchun ham farz, ham qarzdur. Qur'oni karimda ota-onalarga faqat yaxshilik qilish ravo ko'riladi. Masalan, Al-Isro nomli 17-suraning 23,24-oyatlarida bu haqda shunday deyiladi: "Parvardigoringiz, yolg'iz uning O'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning (ota-onangizning) birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» tortma va ularni (so'zlarini) qaytarma! Ularga (doimo) yaxshi so'z ayt!..."

Mutafakkir shoir, axloqi pok Mashrabning otasi u yoshligida-o'smirlik payti vafot etgan. Uni mullo Vali mullo Bozor oxundga olib borib savodini chiqartirgan, Qur'oni karimni boshqa tolibi ilmlarga nisbatan tez va qiroat bilan o'qiy olishi bilan u ustozining mehr-muhabbati, nazariga tushgan.

Mashrab qanchalik dunyo kezmasin,-mudom otasini yodidan chiqarmadi. Bil'aks, mullo Vali ham farzandi arjumandi Mashrab duosida bo'ldi. Shoir kechayukunduz Qur'oni karimni tilovat qilganing bilan, ertadan kechgacha taqvodorlik qilib, toat-ibodat qilganing bilan "To otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas seni",-deydi.

Mashrab otani e'zozlashni, uni yuksaklikka ko'tarishni, hurmatini joyiga qo'yishni, agarda din va imonni mahkam ushlab, hatto o'z kuching bilan o'ttiz uch ming xonaqo qurib bersang ham, evaziga osmondan Iso payg'ambar tushib, sening haqqingga duo qilsa ham, murshiding Xo'jai Xizr bo'lsalar ham, senga rahnamolik qila bilmaydilar, otangni rozi qil, deydi.

Mashrab har doim safarda bo'lgani uchun ota-onasining holidan xabar olib turishni burchi deb hisoblaydi, insoniylikni ustun qo'yib, ularga maktublar yozib, ular sari intilib yashadi. Mullo Vali va bibi Zubayda ham Mashrabning ahvoli qandayligini, qay yurtda yurishidan xabardor bo'lib, har gal farzandlari kelishini

mushtoqlik bilan kutib yashaydilar. Shuningdek, u lirik qahramoni bo'lgan o'quvchisini-komil inson zotini otani hurmat qilishga, unga quloq solishga, aytganlarini solih farzand sifatida bajarishga da'vat etib, uni rozi qilishga chorlagan va "To otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas sani" deb ularni padar-ota amrini bajarishga chorlagan:

Toating behudadir, hargiz topolmassan samar,
Arsh a'zamdin ulug'dur bandaga amri padar,
To otang rozi emas, tavbang qabul bo'lmas sani¹.

Mashrabning ijtimoiy axloqiy merosida ota-onasiga munosabat masalasi markaziy o'rinni egallaydi.

Mashrabdek shoirning onasi bo'lish katta baxt. Mashrab qayerdagi bo'lmasin, bir zum onasini yodidan chiqargani yo'q. Shu bilan birga onaning qalbi dardu alamga to'la. U miskin, dili shikasta, yurak-bag'ri qonga to'lgan. Farzandi uchun kuyib ado bo'lgan. Zero, onaning yolg'iz farzandi Mashrab har doim uzoqda darbadar yurt kezadi, shahru qishloq kezib adolat izlaydi. Mashrab yurt kezib haqiqat izlab, onasidan o'z vaqtida xabar olmaydi. Dunyoni darbadar kezgan shoir:

Jamoling ko'rgali keldim, ayo ey mehribon onam,
Mening uchun ado bo'lg'an yuragi bag'ri qon onam.
Ajoyib mehribonimsan, meni oromi jonimsan,
Murodi du jahonimsan, bihishti jovidononam.
Iloho, afv qilg'aysan bu Mashrabning gunohini,
Tufayli onaizorim, g'aribu notavon onam, - deydi².

U bibi Zubaydani Ka'baga qiyoslaydi. Ka'ba-bu mo'мину musulmonlar ziyorat qiladigan muqaddas dargoh. Ka'ba-Allahning uyi, ziyoratgoh. Mashrab Ka'bani bir necha bor ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'lgan komil inson, shu bois u onasini Ka'baga mengzaydi, uni tavof qilish uchun kelganligini aytadi. Zero, onani ko'rish, intizorlik va firol o'tida yurgan shoir uchun dilini yorish, dardu hasratlarini aytish, Ka'bani ziyorat qilish bilan barobar edi. Mashrab Iloh (Allah) oldida g'arib onasidan o'z vaqtida xabar ololmaganidan gunohini kechirishini iltijo qiladi.

Mashrab axloqiy qarashlardagi ta'limotlar xususida xulosa qilinganda, mutafakkir shoir avvalo, Muhammad (s.a.v)ni, soniyan, bani bashariyatni, payg'ambarimizning ummatlarini xush axloqqa chaqirdi, ota-onaga hurmat, ehtirom ko'rsatishni, ular oldida farzand o'zini g'ulom (qul)dek tutishligini ibrat qilib ko'rsatdi.

Tadqiqot ikkinchi bobining ikkinchi fasli "Talabalar ma'naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishda Mashrab ijtimoiy-pedagogik qarashlarini tatbiq etish tizimini takomillashtirish" deb nomlangan. Donishmand shoirning insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari odamgarchilik to'g'risidagi pandu nasihatlarida ham mujassam. Shoir ma'naviy-axloqiy yetuk insonda kamtarinlik, xoksorlik, dardmandlik kabi oliy fazilatlarini ko'rishni istaydi, insoniy fazilat haqida:

O'zungni har xasu xoshokdin, ey banda, kamtar tut, - degan g'oyani ilgari surgan.

¹ Mashrab. Devon. -T.: "Yangi asr avlodi", 2006. -B. 407-408.

² Боборахим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. - Т., Фафур.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. -Б. 71.

Mashrab dunyoqarashicha, ma'naviy kamolotga talabgor odam, har qancha ulug' martabalarga ko'tarilmasin, mag'rurlanib ketmasligi, o'zini yer yuzini qoplagan xasu xashakdan ham kamtar tuproq bilan teng tutishi lozim.

Nafsga qarshi kurash, uni mag'lub etishga intilish tasavvuf ahli axloqining asosiy xususiyatlaridan bo'lgan. Nafsu xirsu havasning xuruji hamisha ma'naviy poklik va mukammallikka rahna solib kelgan. Shu boisdan Mashrab, o'z she'riyatida nafsu hirsu havasdan poklanishga, saqlanishga qayta-qayta da'vat etgan, insoniy fazilatlarni ulug'lagan.

Shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatning barcha bosqichlarini bosib o'tib, Ilohiy kamolotni oxirgi darajasiga yetgan kishi komil insondir, deyiladi. Demak komil inson dunyoviy tashvishlardan, xayvoniy mayllardan, tuban illatlardan poklanib, axloq, fe'li-atvor, yurish-turishi insoniy fazilatda mumtoz bo'lgan, ma'rifat va haqiqatni oliy darajada fahm etgan shaxsdir. Mashrab dunyoni shunday idrok etgan mutafakkir edi.

Oriflik-Xudoni tanimoqdir. Xudoni tanimoq-fikr qilmoq, to'la ko'ngilli bo'lmoqdir.

Mashrab komil va orif mutafakkir edi:

Mashrabo, shuhrat talabni keynidin ofati bor,

Orifi vaqt ul bo'lur, imonga ofat bo'lmasa¹.

Ma'rifat manzilida inson Xudo mohiyatini to'la anglab ilmu axloqda komillashadi va orif degan oliy insoniy fazilat, nomga ega bo'ladi.

Insoniy poklanish shu darajadagi, u Ilohga oshiqiligini-olam agar-da, seni kufr so'zlar bilan haqoratlasa-da, xalq ichida yomon nom olsang-da, har kim seni kesak otib, yakson etib o'tsa-da, sen o'zingni tuproq sana, hamma seni bosib o'tsin, chunki, sen dahriy emas, musulmonsan, deb insonni ulug'likka, buyuklikka, insoniy fazilat axloqiy poklikka chorlaydi:

Tufroq bo'lgil yo'l uzra, sani bosib o'tsunlar,

Kofirligidin o'zga hech manda odat qolmadi².

Albatta, Mashrab dunyoqarashining asosida ham diniy, ham dunyoviy axloq ta'limoti ustun turadi. Mutafakkir qarashlarining asosiy mazmunini yetakchi va bosh sababi zamonasi uchun ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan, umuminsoniyatning orzu-umidlari, ezgu niyatlari uchun xizmat qiluvchi ilg'or insoniy g'oyalar tashkil etadi.

U Namangan shahri-tug'ilgan yurtini zamona g'addorliklari tufayli tashlab ketar ekan, vujudi o'rtanadi, "Muhabbat sharbatin ichtim", "Bu foniyy dunyodin kechtim" degan mutafakkir ichki jasoratli ruhning tug'yoni ustuvor kelib, Namangandan dunyo kezish uchun chiqib ketishni maqbul sanaydi:

Ma'rifatlik bir egam deb bo'lma g'ofil, Mashrabo,

Garchi g'ofirdurki, yo'qdur mehribon, jabbor deb.

Mashrab hayot aysh-ishrati, boyluk va, umuman, barcha dunyoviy, moddiy noz-ne'matlardan voz kechgan qalandar, darvish, darbadar mutafakkirdir. Insonning Allohga bo'lgan beadam ishq, uning diydorini ko'rish ishtiyoqi, uning nomi bilan mast bo'lib unga bo'lgan muhabbatini izhor etish mutafakkir ijodiyotining mantiqiy hosilasidir. Mashrab, professor I. Abdullayev yozganidek, o'sha zamonasining bir

¹ Бобораҳим Машраб. Девон. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. –Б.18.

² Қиссаи Машраб. -Т.: Ёзувчи, 1992. –Б. 39.

harorati zo‘r, olovi edi. Nohaqlikni ko‘rolmadi, yolg‘onchiyu kazzoblarni so‘kib o‘tdi. Dunyodan isyon bo‘lib o‘tib ketdi. Uning o‘tkir misralari boy davlatmandlar va nodon ulamolarga o‘qday otildi. Mashrabdagi dunyoviy muhabbat, haqiqiy go‘zallikni kuylash uni samoviy go‘zallikka, Alloh muhabbatiga ruhlantirdi:

Gulshani bog‘i dahr aro bulbuli nag‘magar o‘zum.

Bir buti bebadal uchun oshiqi darbadar o‘zum.

Mutafakkir axloqli kishi nafsga berilmasligini, axloqsiz kishilar nafsga haddan ziyod berilganligini, o‘zligini yo‘qotgan, olam ishlaridan bexabar inson, Allohni unutgan kishilargina maqsadsiz yashashliklarini anglatadi. Shermard, jonga oro kiruvchi, ma‘rifat va ziyodan xabardor kishilarni insonning jismiga poklik bag‘ishlashini, agarda ular Haq uchun senga yo‘l ko‘rsatsalar, sen bunday odamning xoki poyiga “Boshingni urginu, dargohida xizmatda bo‘l doim”, -deydi.

Yetti yil Ofoqxoja dargohida xizmat qilgan shoir irshod olmay, u yerdan ketishga majbur bo‘lgan. Chunki Mashrab ruhoniya kishisi edi. Ustozlik va shogirdlik odobini saqlagan Mashrab piri huzuriga qaytib boradi. Kanizak mojarosi esa shoirning dunyodan ahli ayol va farzandsiz o‘tganiga badiiy-to‘qima-bir sababdir. Uning she‘rlarida bu mojaroga ishora yoki norozilik umuman sezilmaydi. Mashrab kimnidir sevgan bo‘lishi tabiiy. Shoirning “Zebo sanamim”, “Ey sanami parliqo”, “Qiz” kabi ko‘plab g‘azallari yuksak insoniy fazilatlarining, inja tuyg‘ularning go‘zal ifodasidir. Biroq bu muhabbatni aynan Ofoqxojaning kanizagiga nisbat berish noo‘rin¹.

Qolaversa, yetti yil suluk ta‘limini olgan, majzub va oshig‘i barhaq sifati bilan ulug‘langan Mashrabning Ofoqxoja kanizagi bilan pining dargohidan quviladigan darajada ishqiy munosabatda bo‘lganligiga ishonish qiyin.

Hazrat Navoiy “Senga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang, ani qil band”- degan edi. Ne ajabki dunyo mushkullarini yechishga qudrati yetgan inson zoti nafi ammor qarshisida hamon ojiz. Navoiy bilan Shoh Mashrab nafi ammorani yenggan, yengishga kuch topa olgan yuksak insoniy fazilatga ega ulug‘ zotlardir.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “Talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishga oid Mashrab asarlaridagi didaktik omillarning o‘rni” deb nomlangan. Kubroviya va naqshbandiya tariqatlarida komil inson siymosi hech qanday ig‘roq va mubolag‘asiz amaliy hayot talablariga mos keladigan shaklda tasvirlanadi.. Shubhasiz Najmiddin Kubro ham, Bahouddin Naqshband ham shuningdek, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o‘zi komil inson darajasiga ko‘tarilgan zotlardan edilar. N.Komilov «Tasavvuf» kitobida «Ulug‘ Alisher Navoiy komil insonning yorqin timsolidir» deb yozadi.

Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni shohlar darveshiyu, darveshlar shohi, suvratda shohu, siyratda darvesh, deb ta‘rif- tavsif etgan edi. Shuning uchun ham Ubaydiy shoh bo‘lishiga qaramay, darveshlikni orzu etgan:

Allohga shukur, afzal erur shohlikdan,

Ey darveshlar, hamisha darveshligimiz.

¹ Дилором Ҳамроева. Машраб ҳақидаги афсона ва ҳақиқатлар. “Ишонч” газетаси, 2004, 7 май.

Tasavvufda darvesh-barcha Ilohiy va dunyoviy ezguliklar, fazilatlar sohibi, mukammal ilmu axloqni o'zida mujassam etgan komil inson sifatida tasvirlanadi.¹

Komil insonga berilgan jamiki sifatlar biz tadqiq etayotgan mutafakkir darvesh shoir Boborahim Mashrabda mujassam edi:

Og'izdan dur sochay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.

Shoir she'riyatiga nazar tashlaganimizda – Navoiy, Bobur, Mashrab she'riyatlardagi mushtarak jihatlarni ko'rdik. (ta'kid: H.M.)

Mashrabning Navoiy ijodidan o'rganishi, uning an'alarini o'zlashtirishi va davom ettirishi mavzusini yorituvchi beshubha dalillar yetarli mavjuddir.

G'azalnavislik an'alarini davom ettirgan uch zabardast she'riyat sultonlari Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrabning komil inson haqidagi g'oyalari, ishq ahli haqidagi tushuncha va tasavvurlari, Ilohni qidirganliklari, jono – Yor vasliga mushtoqligi uning hajrida: «Hajr ila dilxasta»ligi, «Istab jahonni topmagan»ligi, «Firoq dashtida tashna»ligi va asosiysi dardlarini bir xilligi mutafakkirlarning Inson va uni Yaratuvchisiga mehr-muhabbatlari yuksakligidan dalolat beradi. Har uch shoirning «Topmadim» g'azallaridagi uyg'unlik, mushtaraklik jihatlari nazar tashlaymiz.

Navoiy:

G'am bila jonimg'a yettim, g'amgusore ko'rmadim,
Hajr ila dilxasta bo'ldim, dilistone topmadim.

Bobur:

Jonimdin o'zga yoru vafodor topmadim,
Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim.

Mashrab:

Bu olamda o'zumdek siynasi afgor topmadim,
Ki, rozim aytg'ali bir mahrami asror topmadim.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul komil inson haqida go'zal asarlar yozgan Aziziddin Nasafiy haqida yozadi: Uningcha komil inson shariat, tariqat va haqiqatga yetishgan zotdir.

U Ahmad Yassaviy haqidagi tadqiqotida yozadi: «Insoni komil yaxshi so'z, yaxshi axloq va yaxshi bilimga ega bo'lgan kishidir. Bu to'rt narsada komil kasb etgan odam komillikni qo'lga kiritgan hisoblanur» insoni komilga bir qancha nomlar berilmish. Bulardan ayrimlari quyidagilar: shayx, hodi, mahdi, orif, imom, halifa va sohibi zamon.

Insoni komil jahonni aks ettiruvchi ko'zgu, o'lukni tiriltiradigan Iso, qushlarning tilini bilguvchi sohibi saltanat Sulaymon, obi hayotdan qongan Xizr kabidir. Yassaviy nuqtai nazarida, budunyo insoni komil bilan fayzli va barqarordir. Chunki undan hech narsa yashirin qolmaydi.

Hamma davr, hamma zamonlar uchun o'rnak va namuna bo'lgan insoni komil Allohning rasuli hazrati Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimizdir.

Mashrabga zamondosh bo'lgan Xo'janazar Huvaydo o'zini Alloh talabgori deb hisoblaydi. U nafsingni o'ldirmaguncha Alloh vasliga yetolmaysan deydi.

Talabgori visol o'lsang, dili joning bila yig'lab,
Tirikliy o'lmaguncha topmagaysan vaslin, ey solik.

¹ Эргаш Очиллов. Дарвеш – Комил инсон тимсоли. «Ўзбек тили ва адабиёти», 2000, 2-сон. –Б. 3.

Mashrab, So‘fi Olloyor, Xo‘janazar Huvaydolarning komil inson haqidagi qarashlari bir xildir. Alloh ularning nazarida inson aqlu tushunchasi, tasavvuriga sig‘maydigan, barcha sifatlar, ismlar, ta‘rifu tavsif va o‘lchovlardan baland turadigan zot. Mashrab ana shu bekaron buyuklikni nazarda tutadi va ayni vaqtda shu buyuk qudratning bir qismiga aylangan komil insonni ham anglaydi.¹ «Hujjat ul-islom» (Islom hujjati) maqomiga erishgan Muhammad G‘azzoliy Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarni komillar sarvari deb biladi.

Mashrab Allohning vasliga vosil bo‘lgan, tariqat piringing etagini tutgan, istagi Ofoqxonada dargohida qabul bo‘lgan komil darvesh edi.

Xondamirning ma‘lumot berishicha, Sulton Husayn Boyqarodan: «Saltanat sohibi bo‘lmaganingizda nima ish ila mashg‘ul bo‘lardingiz?»-deya so‘rashganda, «Najmiddin Kubro maqbarasida jo‘robkashlik, farroshlik qilardim», – deb javob qaytargan ekan. Najmiddin Kubro ana shunday ulug‘ ehtirom va e‘tiborga to‘la loyiq valiy zotdir.²

Mashrab meshkobchilik qildi, meshda toza suv tashib, odamlardan duo oldi.

Tasavvufda murshidga shunday izoh berilgan. Murshid-tariqat piri, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi rahnamo. Murshidi komil esa-Haqqga yetishgan, fanofilloh martabasiga yuksalgan vali.

Ofoqxoja Najmiddin Kubro aytgan tasavvufdagi tariqat murshidi bo‘lib, yashirin, pinhoniylar sirlardan voqif, Haq – haqiqat – g‘ayb sinoatlaridan xabardor pir edi.

Ofoqxoja Maxdumi A‘zam xojagi Kosoniyga chevaradir. Mashrab piri va ustozlari Ofoqxojaning katta bobolari Maxdumi A‘zamning Dahbeddagi xilxonasini ziyorat qilish bilan ustoziga cheksiz hurmatini izhor etgan:

Necha bir kun Dahbed ichra istiqomat aylasak,
Xojai Ofoqni ham dam ziyorat aylasak,
Qo‘l berib, xizmat qilib, gah bazmi suhbat aylasak,
Ruxsat olib boz alardin roh azimat aylasak,
Ma‘dani ilmu adolat deb Buxor istar ko‘ngil.³

Ulug‘ o‘zbek shoiri Alisher Navoiy yor-do‘stlari bilan otda Hirot ko‘chalaridan ketayotganlarida ro‘paralaridan bir yosh bola kelayotgan ekan. Shunda hazrat Navoiy darhol otdan tushib, haligi bolaga marhamat va navozishlar ko‘rsatib, yana otga minib, yo‘llariga ravona bo‘libdilar. Yonidagilar bu voqeaga hayron bo‘lib, «Hazrat, otdan tushib, bola bilan muomala qilishning boisi ne?»-deb so‘raganlarida, hazrat Navoiy: «Bu bola ustozimiz va pirimiz hazrat Abdurahmon Jomiyning nabirasi erdi. Shu sababdin hurmatini joyiga qo‘ydim», -deb javob beribdilar. Demak, ota-bobolarimiz nafaqat ustozining o‘ziga, hatto avlod-ajdodiga ham hurmat ko‘rsatishgan ekanlar.

Ofoqxoja vafotidan keyin ham Mashrab, u kishining farzandlari huzuriga bir necha bor kelib, ular bilan munosabatini uzmay, Ofoqxoja ruhoniylarini eslab, unga atab g‘azallar bitgan:

Tuttim piring etokin, oxir yo‘lg‘a boshladi,
«Yo‘lda qolg‘on gumrohdeb Ofoqxojam xushladi,

¹ Najmiddin Комилов. Тасаввуф. Тавҳид асрори. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. –Б. 136.

² Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004. –Б. 29.

³ Машраб. Девон. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2006. –Б. 421.

Oshiqning qalbi Tur tog‘i. Favqulodda go‘zal tashbeh, beqiyos o‘xshatish. Hazrati Muso va Tur tog‘i bilan bog‘liq voqealarga ishoralar «Qissai Mashrab»ning turli o‘rinlarida turlicha munosabatlar bilan keltirilgan. Shoir qalbida bu voqealarga yaqinlik, uyg‘unlik bor. Tog‘ki dosh bera olmagan tajalliy nuriga inson qalbi qanday bardosh berar ekan? Mashrab zaminu osmonda, gulzoru gulda, quyoshu oyda, olam va odamda, tog‘u toshlarda, hayot va o‘limda, qalbining tizginsiz g‘alayonlarida, qo‘yingki, moddiy va ma‘naviy hodisotlarning barchasida Alloh tajalliysi nurini ko‘radi. Beorom va beqaror ko‘ngil hamisha mana shu nurga talpinadi.¹

Ellik yil Iyso bilan yurdum o‘lukni tirguzub,
Boisi bir nuktadin Mashrabzamonga sig‘madim,
deydi u Iso haqida. Payg‘ambar uch narsani yaxshi ko‘rgan. Birinchisi – xushbo‘y gullarni – ilmi kishilar xushbo‘y gulga o‘xshab, o‘zlaridan anvoi, muattar, yoqimli hid taratadi, hamma uning atrofiga, ziyosiga talpinadi. Ikkinchisi – ayolni, ayol bu sulh, tinchlik, osoyishtalik va go‘zallik ramzi. Uchinchisi – joynamozni – bir kunda besh marta poklanib, Alloh bilan yuzlashib, namoz o‘qigan kishi Xudodan qo‘rqadi, o‘zgalarga yomonlik qilmaydi.

Mashrabning onasi komila bo‘lgan ona Zubaydabegim nozikta‘b, nuktadon shoira bo‘lgan. Singlisi Mohibadr («To‘lin oy») ham fozila shoira bo‘lgan.

Mashrab mullo Bozor oxunddan saboq olib bo‘lgach, Qashqarga jo‘naydi. Har qanday ona kabi Zubaydabegim uchun ham o‘g‘ilni musofir yurtga ilm olish uchun yuborish oson kechmagan ko‘rinadi. Holbuki, Mashrab «qol bukun» radifli g‘azalida ortidan yig‘lab qolayotgan onaga tasalli berib, ko‘z yosh to‘kmaslikni, uni duo qilib turishni, mardona bo‘lishligini, ona undan zarra vafo ko‘rmaganligini, uning qalbiga ishq tushganligini, jonu ustixonini ilm ishtiyoqida yonayotganini, u pir xizmatiga yo‘l olganligini, ona Ka‘bai qiblasini ekanligini, aytib, uning yaxshi qolishini iltijo qiladi:

Mashrabi bechora piring xizmatiga oldi yo‘l,
Ka‘bamu qiblam manim, g‘amxona onam, qol bukun.²

Abdulkhamid Shar‘iy Jo‘zjoniy Mashrabning komillik sifatlarini sharh etgan va u hattoki farishtalardan ham ustun turadi, Yaratuvchi ularga bosh qo‘yib sajda qilishni buyurganligini ta‘kidlagan. Jo‘zjoniy fikricha Mashrabning komillik haqidagi qarashlari shunday ifodalanadi: O‘zlari komilsifat, har luqmasi haqqi sag‘ir. «Kamoli nuri rahmat», «Jahon nuktadoni» va Yaratgandan nur keldiki, «sani man jannati qildim» kabi Mashrab mujdalari uning komillik haqidagi qarashlari ifodasidir.

Avliyo Salmoni Forsiy saqqo-meshkobchilarning boshlig‘i bo‘lib, har bir xonadonga beminnat suv yetkazib bergan darveshdir. Mashrab ham Ofoqxoja xonadonida meshkobchilik qilgan va suv tashigan, xonadonlarga obi hayot yetkazib bergan. Shuningdek, u Iloh jamolini ko‘rish ishtiyoqida piri ustozlarni ziyorat qilib, insoni komil bo‘lgan zotlarning ruhoniyyatlariga bag‘ishlab she‘rlar yozdi:

Tuttum piring etokin, oxir yo‘lga boshladi,
Piri komilsan, haqiqat bobida daryoyi hol.

¹ Зиёда Машарипова. «Қиссаи Машраб»да ошиқ тимсоли. Олими нуктадон манам. Тўплам. Наманган, 2004. – Б. 93.

² Машраб. Девон. –Т.: “Янги аср авлоди” 2006. –Б. 230.

Mashrab uchun kimki o‘zini anglasa, Rabbini ham taniydi, u olamni anglaydi, Ilohiy siru asror, g‘ayb hikmatidan boxabar bo‘ladi, deb xulosa chiqaradi.

Mashrab o‘n sakkiz yillik judolikdan so‘ng onalarining huzuriga qaytib kelganlarida, sochlari oqargan, farzand firog‘ida yig‘lab ko‘zlari ko‘rmay qolgan onalari Xudoga munajat qilib, yig‘lab o‘tirganlari ustidan chiqqan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Talabalarning ma‘naviy–axloqiy kamoloti tizimini takomillashtirishda Mashrab asarlaridan foydalanish tizimi”** deb nomlangan. Bobning birinchi fasli “Talabalar ma‘naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirishning didaktik ta‘minoti” deb nomlanib, akademik, faylasuf olim I.M.Mo‘minov fikricha, xalq norozilik qo‘zg‘olonlaridan so‘ng mehnatkashlar ommasi har safar alam va ho‘rlikni, g‘azab va umidsizlikni ko‘ngillariga tugib, qutulish yo‘lini topish umidida sirli osmonga ko‘z tikib, orqaga chekinishga majbur bo‘lgan edilar.

O‘zbek adabiyoti va o‘zbek ijtimoiy tafakkurida ziddiyatlardan, o‘ziga xos g‘oyaviy oqimlar ana shu sosial negizlardan kelib chiqdi. Ana shu jihatdan Mashrab ijodi birmuncha ahamiyatga egadir.

Sargardon shoir Boborahim Mashrab o‘tkir ziddiyatli she‘rlari bilan mashhur bo‘lib, XIX asrda keng xalq ommasi orasida Bedildan ham ortiqroq nom chiqardi.¹

Abdurauf Fitrat Mashrab haqida chuqur ilmiy tadqiqot yo‘qligini, P.V.Vyatkin Mashrabni tarixiy shaxs emas, afsonaviy shoir darajasiga ko‘targanligini, Yevropada u mashhur ekanligini, Mashrabni Farg‘onada hech kim bilmasligini afsus bilan qayd qilgan.

Fitrat Mashrab she‘riyatidagi uslubiy nozikliklarni, undagi kuchli jozibani teran anglab, tahlil etgan: Mashrabning kuchli bir uslub egasi bo‘lg‘anini forsiycha, o‘zbekcha she‘rlarida ko‘ra oldik. Mashrabning tili soddadir. U ko‘brak shahar tilining eng takallufsiz uslubida yozadir. «Dur» qo‘shimchasining bukun bizda ishlatilg‘an «r»siz shaklini ko‘brak ishlatadir:

«Mashrabi benavoduman,
Vasling uchun gadoduman.
Hajr o‘tig‘a kuyoduman,
Yor jafosini ko‘ring».

«Xolu xatingni ko‘rmasam, yo‘qtu qarorim ey sanam».
«Devonaduman do‘xtari sultoni ajamg‘a».

Fitratning maqola-tadqiqotini dastlab nashrga tayyorlagan adabiyotshunos Boybo‘ta Do‘stqorayev olimning Mashrab mavzuiga munosabatini shunday izohlagan: «Noyob ilmiy iste‘dod egasi bo‘lgan Fitrat o‘zbek, umuman, Sharq klassik adabiyotiga oid yozilgan asarlardan yetarli darajada qoniqish hosil qilmasa, ularda ko‘tarilgan mavzuga qo‘l urib boshqalar hal etib berolmagan ilmiy muammolarni yechishga intilgan»².

Tasavvuf olimi N.Komilov tasavvufga bag‘ishlangan «Tavhid asrori» kitobida Mashrab jazbasi haqida fikr yuritib, uni «Kamoli nuri rahmatman» deb atagan. Unda tasavvuf tarixi, uni ta‘limoti haqida fikr yuritilib, Mashrab Ibrohim Adham,

¹ И.М.Мўминов. Танланган асарлар. 1 том. –Т.: «Фан», 1969. –Б. 211.

²Бойбўта Дўстқораяев. Ўзбек насада Машраб тимсолини яратиш тажрибаси ҳақида мулоҳазалар. Мустақиллик даври адабиёти. Гафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, Тошкент; 2006. –Б. 197.

Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy ijodidan ilhomlangani, Mansur Halloj maqomini orzu etganligi tahlil etilgan.

Shuning uchun u «yurtga o‘lturgan» Mahmud qatag‘onbiyga qo‘rqmasdan «taxtingga o‘lturdim, nima deysan» deya olgan. «Anal-Haq» degan Mansur Hallojni zamonasida tushunib yetmagan ulamolar va vazir nohaqdan o‘limga hukm qilgani Mashrabda ichki isyonni keltirib chiqargan, shuning uchun endi ochiqchasiga kurash yo‘liga o‘tgan, Mashrab shuni xohlagan, unda Halloj kabi qo‘rquv bo‘lmagan. N.Komilov buni shunday izohlagan: Ammo bu e‘tiqod Mansurga qanday fojea olib kelgan bo‘lsa, Mashrabga ham shuni nasib etdi. Uning haq so‘zidan otashin she‘ri va tig‘li hajvidan tahlikaga tushgan shariat «himoyachilari» hukmron tabaqa vakillari bilan qo‘shilgan holda shoirni gunohkor hisoblab o‘ldirdilar. Tarix yana bir marta qonga belandi, yana bir marta ma‘rifat bilan zulmat, erkin tafakkur bilan taassuf va nodonlik to‘qnash kelib, qurbonlik berildi – shoirning o‘zi butun insoniyat falokati degan o‘sha Nafsi lain johil ulamolar qiyofasida haqiqatdan o‘ch oldi¹.

G‘amdin o‘zga bo‘lmadi dardimga darmon oqibat,-
degandi u. Mashrabning shaxsi g‘am quyuni ichidagi bir daraxtga o‘xshaydi. Shoir qalbidagi beqarorlik, sargashtalik, ovoralik va hayronlik mana shundan. Mashrab shaxsiyatini tinglagan kishi uning ichki hayotida hech qachon sokinlik, xushnudlik bo‘lmaganligiga darhol ishonch paydo qiladi.²

Mashrabning ishqiy lirikasi «bechora»larning, zamonasining begunoh qullarining maqsadlari bilan sug‘orilgan edi. Shoirning fikricha, haqiqiy oshiq holahvol so‘raydigan, shirinzabon, chiroyli, xushfe‘l va samimiy yorni istaydi. Yorning poyqadamidan oshiq dargohi charog‘on bo‘lishi, hasrat-nadomat va oh-fig‘on unutilib, xushchaqchaq oilaviy hayot bunyodga kelishi kerak. Binobarin, shoir haqiqiy oshiqning o‘z yorini ko‘rish istagini shunday ifodalaydi:

Tashnalabdur Mashrabing, bo‘ldi yurak – bag‘ri kabob,
Furqatingda chashmayi obi ravonim, qaydasan?³

Falsafa fanlari doktori, professor H.Aliqulov Mashrabning hurfikrlilik g‘oyalarini ilmiy tahlil etgan. Uning fikricha, Mashrab ijodida mistik g‘oyalar tez-tez uchrab turadi. Dunyoga kelib faqat azob-uqubat tortganini, hamma yerda zulm, adolatsizlik, o‘zboshimchalik hukm surayotganini u alam bilan yozadi:

Onadin tug‘mish kunim ro‘zye halovat ko‘rmdim,
Bu raboti ko‘hnada men istiqomat ko‘rmdim.
G‘arq bo‘ldum necha bor mehnatga rohat ko‘rmdim,
G‘ussadan o‘ldim dame xobi farog‘at ko‘rmdim.

Mashrab bu dunyoga, uning noz-ne‘matlariga ko‘ngil bermaslikka ahd qiladi va boshqalarni ham shunday qilishga chaqiradi. Bu dunyoni foni, o‘tkinchi va vaqtinchalik ekanligini, shuning uchun ham unga berilish foydasiz ekanligini aytadi va bu foni dunyodan kechib oxirat umidida yashash afzalligini ta‘kidlaydi.⁴

¹ Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Тавхид асрори. Иккинчи китоб. –Т., Фафур .Фулом номидаги Адабиёт ва санъат ҳамда «Ўзбекистон» нашриётлари, 1999. –Б. 142.

² Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. –Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. –Б. 173.

³ Машраб. Девон. –Т.: «Янги аср авлоди», 2006. –Б. 206.

⁴ Масъул муҳаррир академик М.М.Хайруллаев. Ўрта Осиё халқлари хурфикрлилиги тарихидан / Алиқулов Ҳ. Машраб. –Т.: «Фан», 1990. –Б. 160.

«Tazkirai Qayyumiy»da 2 ta Mashrab taxallusli shoir haqida muxtasar ma'lumot berilib, shulardan biri Boborahim Mashrab, ikkinchisi Mashrabi Soniy – Hofiz Ro'ziboy ekanligi qayd etiladi.

Mashrab I – bu kishi Farg'ona vodiysidan bo'lub, Namangan shahridandir. Nomi Boborahim bo'lub, mullo Vali nomli kishining o'g'lidur. El orasinda shoh Mashrab deb ma'rufdur.

Adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni nuktadon publisist Ibrohim G'afurov Sharqu g'arb she'riyatini chuqur tushunadigan, tahlili cho'ng allomalardandir. I.G'afurov nasrdagina emas, mazmunan boy va sermulohazali publisistik maqolalarida ham Mashrab ijodiyoti, uning o'zbek she'riyatidagi mavqei haqida tiniq va shaffof fikr yuritib, shoir xitoblarini tahlil etadi. U Mashrabni «Faqirlar shohi», «Surati bashar, siyrati malak» deb ataydi, she'riyatdagi maqomini «qudsiy kalom» deb ta'riflaydi: Men Mashrabni kuygan va tinimsiz kuyishda davom etayotgan odam emas, balki bus-butun, ya'ni boshdin-oyoq munavvar alangaga aylangan va oq alanga timsolida jahonni sargashta kezgan haqiqat qidirgan zot deb tasavvur qilaman. Uning g'azallari shu oq alanganing butun Movarounnahr bo'ylab to'kilgan va hamon yonayotgan parchalaridir¹.

I.G'afurov fikricha, himoyasiz, panohsiz xalqning nochor ahvoliga chidayolmay Mashrab darbadarlik yo'lini tutdi. Zulm ostida ezilgan xalq ahvoliga u befarq qarab turolmadi. Xalqning dardini yuragiga jo qildi. Bu dard shunchalik poyonsiz ediki, u dunyoga sig'may qoldi. Adolatsizliklar hukm surgan dunyoda u o'zini begona sezdi.

Dunyoning markazida qon yalagan, jahonni o'zi kabi odamlarning qoniga botirgan va o'zi kabi odamlarni necha o'n yillab tikanli simlar bilan o'ralgan jahannam chog'ida saqlagan «dohiyalar» emas, Boborahim Mashrab turadi².

Birovning rizqini yemagan, birovning moliga havas qilmagan, o'zi kabi odamlarga hech qachon ozor bermagan va ziyon-zahmat yetkazmagan, hech qachon hech qanday boshpanasi, mol-dunyosi, hirsu havasi bo'lmagan, jamiki olam dargohlarini o'ziga uy deb bilgan, dunyoni darbadar kezib haqiqat nurini qidirgan Mashrab o'zini chindan ham olamning markazida turgan kabi tasavvur etadi.

Mashrab manifest g'azallarida o'zini dunyoga sig'magan odam deb e'lon qiladi. O'zini baxtsizlarning baxtsizisi, kulfatzadalarining kulfatzadasi, bir zum ham g'am yukidan farog'at ko'rmagan kimsa deb tanitadi:³

Dunyoga kelib ranju baloni ko'rub o'ttum,

Yuz ranju balo shiddatin o'rgulub o'ttum.

Ofoqxoja eshon bilim doirasi juda keng, badiiy adabiyotdan ham anchagina xabardor bo'lgan, xususan, she'riyatning qadr-qimmatini, uning ommaga ta'sir kuchini yaxshi tushungan. Shu bois, uning dargohida she'riyat ham yuqori baholangan.⁴

Dissertatsiya uchinchi bobi ikkinchi fasli «Talabalar ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini takomillashtirish» deb nomlangan. Boborahim Mashrabning didaktik qarashlari haqida gap ketganda, uning «Kimki tolibdur aning

¹ Иброҳим Ғафуров. Ҳаё-халоскор. –Т.: «Шарқ», 2006. –Б. 277.

² Ўша манба. –Б. 280.

³ Ўша манба. –Б.281.

⁴ Абдурашид Абдуғафуров. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Т., Ўқитувчи, 1998. –Б. 161.

ganji nihoni tavbadur», «Jumlayi maqsudni san zoti Alloh din tila», «Asli davlat din erur, mardi gunohdin, manki yonmasman hanuz», «Oshiq uldur to diliga saqlasa asrorni» va boshqa she'r, muxammaslarida pand-nasihati, o'git, axloqiy fikrlar, ta'lim-tarbiyaviy g'oyalar, didaktik qarashlar ilgari surilgan.

Mashrab ilm-fan, axloq yo'liga kirgan kishining ichki yashirin-nihoni tavbadir deya, ta'lim beradi. U insonlarga murojaat qilib, tiriklikning, iymonning, bandalarning, shohu gadoning maslagi tavba bo'lishi zarur deya odamlarga pand-nasihati qiladi. U tavba degan so'zni og'ziga olgan kishilarda gunoh qolmasligini, insonning qilib qo'ygan gunohini tavbasi uchun Alloh taolo afv etishini, hatto Qur'oni karimda ham Alloh bandalari tavbasini afv etishini aytganligini, tavba qilmagan kishi hech qachon maqsadga yetolmasligini, «Jumlayi shohu gadoning soyaboni tavbadur» deya o'git beradi:

Bir gunohning ustida tavbangni ming izhor qil,
Jumlayi shohu gadoning soyaboni tavbadur.¹

Mashrabning pand-nasihati haqidagi qarashlarini tahlil etishda J.Yusupovning ustozlari G'aybullay as-Salom aytib yurgan bir fikrni keltirishni lozim topdik. Chunki tasavvufda har doim bir narsa ta'kidlanadi: olimning farosatlisidan qo'rq: Mashrab «joyi kelsa avliyolikdan farosatlilik afzaldir», -deydilar. Darhaqiqat, domlamiz rahmatlida fahmlash qobiliyati, donolik, yuzga qarab ichni bilishdek o'ta noyob bir fazilat, xislat bor edi. Mashrabni shunchalik sevardilarki, tahsil davomida xirgoyidan to'xtab «Mashrabni tushunish uchun Mashrabning dardini, Mashrabning alamlari markazini topish kerak. Bu markazning naq o'rtasida Odam Ato va Momo Havomizning Jannatdan quvilishlari mashmashasi turadi»², -derdilar.

Yaratgan huzurida, boqiy dunyoda ham sen o'zingni kambag'al, mol-mulksiz deb hisoblama, behimmat deb bilma, negaki Yahyodek payg'ambar shomu sahar uning Yaratgan ishqini bilan motam tutib yig'laydi, sen ham qalban ko'z yosh to'k, lekin ahli nadomat chekib, afsuslanma deb, pand-o'git beradi.

U Halloqi olam oldida hamma orifu sodiqlar pand-nasihati olganligini, u hamon pand-nasihati, o'git, ibrat olmaganidan afsus chekadi. U takabburlik shaytoniy fe'lli odamlarga xosligini, takabburdan hech qaysi zamon xoli emasligini ta'kidlaydi.

Azozil-Iblisning nomi, shayton Odam Atoga g'urur va kibr qilib, Allohning amriga bo'ysunmaganligi uchun ulyoyi jannat maqomidan yerga haydalgan. Mashrab Azozilning sarkashlik qilib Allohning amriga bo'ysunmaganligi, itoatsizligi uchun yerga quvilganligini, hatto dunyoi davlatni ko'p yiqqan Qorun ham yer qa'riga kirganligini, Alloh bandasi bo'lishni istasang havoyu hirsdan kechishing, bu dunyoning hoyu havaslaridan uzoqda bo'lishing kerak deb, pand-nasihati qiladi:

Barchalar yondi gunohdin, manki yonmasman hanuz,
Xobi g'aflatdan uyondi, man uyonmasman hanuz.

Mutafakkirning didaktik qarashlari haqida xulosa chiqarishda avvalo, Sharqda ta'lim-tarbiyaviy, axloqiy-ma'naviy yo'nalishda ijod etgan Yassaviy, Umar

¹ Mashrab. Devon. . -T.: "Yangi asr avlodi" 2006. -B. 496.

² Usha asar. -B. 45.

Xayyom, Kaykovus, Firdavsiy, Sa'diy, Jomiy, Navoiy asarlarining Mashrab ijodiga ta'sirini nazarda tutmoq kerak.

Boborahim Mashrab adabiy uslubi, uning tili xalq tiliga juda yaqin. Buni shundan bilsa bo'ladiki, u ijodida xalq og'zaki ma'naviy merosini chuqur o'rganib, ilhomlangan, undan ko'p o'zlashtirgan Mashrab Hofiz va Sa'diy Sheroziylar ijodini yaxshi bilganligi ko'zga tashlanadi. Xususan Navoiy va Xondamir she'riyati va undagi ma'naviy-axloqiy, didaktik g'oyalarni chuqur bilgan.

Mustaqillikgacha Mashrabning didaktik asarlaridan, ayniqsa, mustazodlari, murabba'lari, musammanlari, musaddaslari, musabba'lari, musammanlaridan, ulardagi yuksak axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy, didaktik g'oyalardan bebahra qoldik.

Mashrab she'riyatda Fuzuliy, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi mutafakkir shoirlar g'azallariga javob aytgan, ularning asarlariga muxammaslar bog'lagan shoirdir. Uning she'riyati qahramoni shoirning o'zidir. Demak, shunday ekan, u aytgan, aytmoqchi bo'lgan fikr va turlicha axloqiy, ta'limiy, didaktik, ma'naviy qarashlar u tomonidan odam ahliga atalgan, unga yuborilgan nasihatimiz, ibratimiz, didaktik g'oyalardir.

U olam ahliga murojaat qilib, o'zining didaktik, pand-nasihatlarini yo'llab, Allohdan madad so'raydi. U olam ahliga hamdard va hamfikrligini: «To kishiga dard tegmay bo'lmasdi bag'ri kabob, dilda darding bo'lmasa sardaftarimni kavlama» deb o'git berdi va dard ahli topib, ko'zin yoshin sepib o'tganligini ta'kidlaydi:

Na yerda ahli dard topdim, ko'zum yoshin sepib o'ttum.

Mashrab ta'lim-tarbiya olgan, axloqiy-didaktik, o'git-nasihatlar egallagan Ofoqxoja xonadoni va u yerdagi tasavvufiy ta'limotlar shoir ijodiyoti orqali jamiyatning turli toifa va tabaqalari ongi va tafakkuriga yetib borganligini unutmashlik kerak bo'ladi. Sababi Maxdumi A'zam xojagi Kosoniy avlodi bo'lgan bu xonadon tarqatgan tariqat bobokolonlari merosi bilan uyg'unlashib, nafaqat Sharqiy Turkiston, Movaraunnahr va biz nomlarini ko'rsatib bergan, Mashrab izi va qadami yetgan musulmon o'lkalariga, Osiyo, Shimoliy Afrika hududlarigacha yetib borganligini ta'kid etmoq kerak. Shuning uchun u shunday deydi:

Nasihatlar qulog'imga pirimdan anglagan qulman.

Mashrab hazrati Muhammaddek komil din, axloq targ'ibotchisining ummati bo'lishdek davlatu baxtga egaligi bilan faxrlanadi. U odamzot qavmiga o'git berib, aytadi: «Qo'ling birla tilingdan yetmasin hech kimga ozore».

Mutafakkir shoir Sharqning aziz avliyolari Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Junayd Bag'dodiy, Imodiddin Nasimiy, Ibrohim Adham nomlarini g'azal, muhammaslarida tilga olgan. Ahlulloh, podsho, azizu avliyo, shoiru ulamo bo'lgan bunday ulug' zotlar hayoti Mashrab uchun ibrat va namuna bo'lib, yozgan ma'naviy-axloqiy, didaktik asarlaridan u ilhom olgan. Ibrohim Adham podsholikni o'z ixtiyorlari bilan darveshlikka alishib, saltanatu sarvatni, mulku davlatni hirqaga almashgan, darveshlikni ixtiyor etgan edi, bu esa Mashrabni o'ziga qaratgan, uning g'oyalari ikki shoir Ilohiy dardni ko'rgan edi.

Dissertatsiyaning **“Talabalar ma'naviy–axloqiy kamoloti tizimini takomillashtirishning pedagogik samaradorligi va tajriba-sinov ishlari natijalari”** deb nomlangan to'rinchi bobi ilk fasli “Talabalar ma'naviy-axloqiy

kamolotini takomillashtirish tizimini amaliyotga joriy etish”ga bag‘ishlangan. Dunyo adabiyotshunosligida Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab va Xo‘janazar Xuvaydo hayoti, ijodiy faoliyatini tadqiq etish hamda xorij universitetlarida o‘zbek tili va adbiyoti darsliklarini yaratish borasida Germaniya, AQSH, Fransiya, Rossiya, Turkiya olimlari tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Eng muhimi, bunday ishlar bizning tilimiz, adabiyotimiz va qalam sohiblarimizga bo‘lgan yuksak do‘stona munosabat, qolaversa, ulug‘ tarixiy shaxslarimizga bo‘lgan cheksiz hurmat – e‘tibor namunasidir. Muso Todjixo‘jayevning fikricha: Bunday tadqiqot va tarjimalarning yaratilishi ayni paytda, Yevropa xalqlari, xususan, nemis halqi bilan Markaziy Osiyo, jumladan, o‘zbek xalqi o‘rtasidagi do‘stlik, buyuk birodarlikning yorqin namunasi ham edi. Shu jihatdan olib qaraganda, nemis sharqshunosi Martin Xartmannning o‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha yaratgan tarjima asarlari tengsiz qadr – qimmatga ega.¹

Olmon sharqshunosi 1902 yilda “Dono darvesh va avliyo dahriy” kitobini yozadi. Kitob kirish va asosiy qismlardan iborat bo‘lib, kirish qismida Boborahim Mashrabning tavallud joyi Namangan shahri ekanligi, uning yaqinlari – otasi, onasi, singlisi va ustoz mullo Bozor Oxund va uning maktabi, Namangan shahri markazidagi bozor, bozor yaqinida joylashgan hovuz ham muallifning e‘tiboridan chetda qolmagan. Kitobda Namangan shahri jami 5 marta tilga olingan. Tadqiqotchi Mashrabning tug‘ilib o‘sgan yurti Namangan shahri ekanligini ta’kidlab, uning ota-onasi va ustoz haqida muxtasar ma’lumotlar bergan. M.Xartmann tarjimini tugatib, uni jurnalda chop ettirgan, 1902 yilning kuzida Markaziy Osiyoga safar uyushtirgan. U Qashqar, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston shahar va qishloqlarini kezib chiqqan. Qashqarda mahalliy olim Orifdan saboq olgan. Oqsuvda «Devoni Mashrab»ning ayrim boblarini tahlil qilgan.

Safar taassurotlari haqida M.Xartmann «Qadamjo» maqolasini yaratib, 1903 yilda «Orientalische literatursaytung» jurnalida e‘lon qilgan.

Maqolada olim va sayyohning Xitoy va Qirg‘iziston tog‘liklaridagi Mashrab qadamjolari, oddiy xalqning shoirga bo‘lgan munosabati bayon qilingan. “Turkestanskiye vedomosti”ning 1896 yil sonida P.L.K.Yu. o‘zining «Marg‘ilon maktublari” maqolasida rus o‘quvchilarini Mashrab hayoti va ijodi bilan tanishtirish zaruriyati haqida yozadi. Professor N. I. Veselovskiyning 1895 yilda Petrogradda nashr etilgan “Sharq xotiralari” (“Vostochniye zametki”) kitobida: bu shaxs chuqur diqqat-e‘tibor va o‘rganishni talab etadi. Devona mahalliy ruhoniylar bilan turli masalalarda doim bahslashgan va hamisha g‘olib chiqqan!²

“Devoni Mashrab” hikoyatlari va g‘azallari bilan 1993 yilda fransuz tiliga tarjima qilindi. Tarjimonlar Jan – Lu Balp va Hamid Ismoilov hamkorlikda yaratgan bu asar Fransiyaning “Gallimar” nashriyotida “Serie Asie centrale” (Markaziy Osiyo kitoblari seriyasi)da nashr qilingan... Mualliflar fransuz o‘quvchilari didi va Sharqqa bo‘lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda, kitobdagi hikoyatlar soni va hajmini bir

¹ Тоджиходжаев Мусо Муйдинбаевич. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Наманган, 2021. –Б. 5.

² Абдулла Жаббор. Исмингиз нима, Шоҳ Машраб? –Наманган: 2007. –Б. 40-41.

muncha qirqartirishgan. “Devoni Mashrab” manqibi franuzchada “Le vagabond flamboyant” (Nur taratuvchi darvesh) deb atalgan.¹

Kitobga Mashrabning 55 ta g‘azali, 4 ta muxammasi va 2 ta murabba’si fransuzcha tarjimalarda kiritilgan. “Nur taratuvchi darvesh” kitobining eng muhim xususiyati uning ma’naviy – axloqiy yo‘nalishdaligidir.²

Boborahim Mashrab asarlari Amerika qit’asida ham yuksak qiziqish bilan o‘rganilmoqda. Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, nemis sharqshunosi Martin Xartmannning “Mashrab – dono telba va avliyo dahriy” maqolasi Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida katta qiziqish uyg‘otgan. Manqib hikoyatlaridagi dinlararo, millataro va madaniyatlararo bag‘rikenglik islomiy bo‘lmagan xalqlarning ham mehrini qozongan. Maqola nashrdan chiqishi bilan Yevropa va Shimoliy Amerikadagi turli milliy va diniy tashkilotlarning nashriy organlari tomonidan qayta bosilgan va sharhlangan. Jumladan, 1903 yilda Germaniya xalqshunoslik jamiyati (“Verein fuer Volkskunde”) rasmiy organi – “Zeitschrift fuer Volkskunde” (Xalqshunoslikka oid jurnal)ning 13 – 14 – qo‘shma tomlarida Xartmannning ushbu asari sharhlar va qo‘shimchalar bilan bosilib chiqdi.³ 1904 yilda maqolaga Hessen o‘lkasi halqshunoslik jamiyati organi – “Hessische Blaetter fuer Volkskunde” (Hessen halqshunoslik jurnali)da munosabat bildirildi va keng sharhlandi.⁴

Mashrab she’rlari ingliz tiliga tarjima qilingan va Sharq qo‘shiqchlari festivallarida ijro etilgan. AQSHning Yuta shtati Soltsti shahrida yashovchi Alfredo ismli qo‘shiqchi Mashrab g‘azali bilan ajoyib bir qo‘shiq yaratgan. Qo‘shiq tinglovchilarga juda manzur bo‘lgani haqida internet sahifalarida ma’lumotlar berilgan. Bu xususda mashhur arab qo‘shiqchisi Samira Said shunday hikoya qiladi:

Xartmann guruhi Qora dengiz va Kaspiy dengizi orqali 4-sentyabrda Tiflisga kirib keldi. Gurux a’zolari Tiflisdan Toshkentga o‘tib, 27-sentyabrda Samarqand orqali Qashqarga jo‘nadi. 1902-yil 10-oktyabrda sayohatchi olim Terek dovoni orqali Qashqarga yetib keldi.⁵

Xartmann guruxi 7-oy davomida Yorkent, Xo‘tan, O‘qsalur va Oqsuv shaharlarida, reja asosida, ish olib bordi. 1903 yil fevral oyi oxirlarida Terek dovoni ustidan Ergashtom va Olug‘chat qishloqlari orqali O‘shga, undan Toshkentga qaytib keldilar. Toshkentda 15 martgacha bo‘lgan ekspedisiya aprel oyining oxirlarida Berlinga yetib keldi. Mashrab Xorazmda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlariga borib, savdo – sotiq qiluvchi savdogarlarga ergashib Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjonga, u yerdan Turkiyaga o‘tgan. Ozarbayjonda Imomiddin Nasimiy adabiy merosi va hurufiylik ta’limoti bilan yaqindan tanishgan. Mashrab aynan Nasimiy ta’sirida Jaloliddin Yusupov kitobida ahamiyat bergan,⁶ “Xurufi hijo”,

¹ Der Dichter Maschrab.// Literaturen der Volker der Sowjetunion Hg. Prof. Dr. Yarli Junger. – Leipzig. VEB Bibliographisches Institut, 1967. – S. 116.

²Тоджихўжаев Мусо. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талқинида. –Т.: “Bayoz”, 2016. –Б. 70 -71.

³ Zeitschrift fuer Volkskunde. Band 13 -14 .Verein fuer Volkskunde. – Berlin. Verband Deutscher Vereine fuer Volkskunde . - 1903.

⁴ Hessische Blaetter fuer Volkskunde. Band 3 . Hessische Vereinigung fuer Volkskunde. – Hessen, 1904.

⁵ Ўша манба, ўша жой.

⁶ Бобораҳим Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Т., Фафур .Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. –Б. -24-28.

“Hurufi dalolat”, “ Alif – lom” badiiy san’atlarini ijodiy o‘zlashtiradi va uning ta’sirida asarlar yaratadi. Nasimiy kabi inson yuzida harflardan timsollar yaratdi:

Ingliz musiqashunos olimi Teodor Kreyg Levin (Theodor Graig Levin) o‘zining “The hundred thousand fools of God” – (Xudoning yuz ming darveshlari) nomli kitobida ko‘plab o‘zbek mumtoz va zamonaviy xonandalar repertuari haqida fikr yuritilgan. Kitobda Yassaviy, Navoiy, Mashrab, Huvaydo kabi shoirlarning she’rlari bilan aytiladigan mumtoz qo‘shiqlar ijrochilari Jo‘raxon Sultonov, Orifxon Hotamov, Munojot Yo‘lchiyeva, Yulduz Usmonova va boshqa ko‘plab mashhur xonandalarning ijro mahorati qalamga olingan. Unda Mashrab she’rlari yuz yillar ham avval kuyga solingani, bu qo‘shiqlarning o‘zbeklar, uyg‘urlar, tojiklar, qirg‘izlar, yahudiylar va boshqa millat kishilari tomonidan sevib tinglanishi, Mashrab qo‘shiqlarining barcha millatlarni o‘zaro yaqinlashtiruvchi qudrati haqida so‘z yuritilgan.¹

Namanganlik Muso Todjixojayev Navoiy, Huvaydo, Mashrab haqidagi tadqiqotida Mashrab ijodining Yevropa, Amerika, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon va boshqa xalqlar tomonidan o‘rganilishini va o‘sha xalqlar tomonidan she’rlarining sevib o‘qilishi, ommaning shoir shaxsiyatiga qiziqishi kabi jihatlarini keng yoritgan.

O‘zbek halqining boy tarixi, tili, adabiyoti, san’ati, ma’naviy – ma’rifiy merosi haqida g‘arbda eng ko‘p asarlar yozgan sharqshunos olimlardan biri Edvard Olvortdir.²

Haqiqatdan, Golsiyer Xartmannning Mashrab haqidagi fikrlarini o‘qib, Turkiston va uning allomalari haqida yangi tadqiqotlarga kirishdi. U Mashrab maslagi ustida izlanishalar olib borib, uning malomatiya tariqati vakili ekanini aniqladi, malomatiylikni shunday sharhladi:

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli “Talabalar ma’naviy-axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimining pedagogik samaradorligini aniqlash mezonini ishlab chiqish”ga bag‘ishlangan. O‘zbek xalqi asrlar davomida benihoya boy, xilma – xil ogzaki va yozma adabiyot yaratdi. O‘zbek og‘zaki va yozma adabiyoti, adabiy tili va pedagogika tarixi, shuningdek, adabiyotshunosligi taraqqiyoti natijasida o‘tmishda juda ko‘p adabiyotshunoslik terminlari shakllandi. Bu adabiyotshunoslik terminlarining takomilida adabiy aloqalar salmoqli o‘rin tutdi, katta rol o‘ynadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqi tojik, qirg‘iz, qozoq, turkman, kavkaz, eron, arab, hind xalqlari hamda Yakin va O‘rta Sharqning boshqa xalqlari bilan yaqindan iqtisodiy, madaniy va adabiy aloqada bo‘lgan. Adabiy aloqalar adabiyotshunoslik terminlari taraqqiyotida ham chuqur iz qoldirib, xamsa, g‘azal, ruboiy, masnaviy, muxammas, musaddas, tajnis, tazod kabi juda ko‘plab mushtarak terminlarni vujudga keltirdi. O‘tmishda vujudga kelgan adabiyotshunoslik terminlarining ko‘pi hozirgi kunda ham ilmda va adabiy ijodda yashab, keng qo‘llanib kelmoqda.³

Yangi zamon adabiyotshunoslari mustazod va uning kelib chiqishi, xususiyatlari to‘g‘risida, g‘azalga aloqasi haqida qimmatli fikrlar beradilar.

¹ Тоджихўжаев Мусо. Ўзбек адабиёти намуналари Мартин Хартманн таржимаси ва талкинида. –Т.: “Bayoz”, 2016. - Б. 74.

² Ўша манба, ўша жой.

³ Н. Хатамов. Б.Саримсоқов. Адабиётшунослик терминларининг русча – ўзбекча изоҳли луғати. -Т.: “Ўқитувчи”, 1979. -Б. 6.

Chunonchi turk adabiyotshunosi Ogoh Sirri Levend, Ye.E. Bertels, A. Hayitmetov, E. Rustamov, M. Zokiriy va boshqalar mustazod, uning xususiyatlari haqida fikr yuritib, uning gʻazalga oʻxshashligini, undan oʻsib chiqqanligini taʼkidlaydilar. Jumladan, professor Ye.E. Bertels quyidagilarni yozadi:

Adabiyotshunoslar Narimon Hatamov va Bahodir Sarimsoqovning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha – oʻzbekcha lugʻati” da mustazod janri haqida quyidagicha maʼlumot berilgan: Mustazod xalq sheʼri zaminida yuzaga kelgan boʻlib, keyinchalik yozma adabiyotga oʻtgan. Oʻzbek klassik shoirlari uning goʻzal namunalarini yaratganlar. Eng koʻp mustazod yaratgan oʻzbek Mashrabdir. Keyinchalik Ogaxiy ijodida mustazodning yangi shakli yuzaga kelgan.¹

Boborahim Mashrab mumtoz sheʼriyatimiz tarixida eng koʻp mustazod yozgan ijodkorlardan biridir. Shoir hayoti va merosining chuqur bilimdoni prof. Abdurauf Fitrat 1930 yilda bosilgan maqolasida bu haqda shunday yozadi: “Mashrabning eng koʻp suygan shakli mustazod shaklidir. Mustazod gʻazalning har bir misrasidan keyin shul misradagi vaznning maʼlum bir miqdori qadar soʻz ilova qilingʻon shaklgʻa aytiladur... Oʻzbek va chigʻatoy shoirlari orasida men Mashrab qadar mustazodni koʻp yozgʻon shoirni uchratmadim. Mashrabni chiroyli mustazodlari bor”. Prof. Fitrat “Chiroyli mustazodlar”ga misol sifatida oʻz maqolasida :

Bu xasta vujudimni mani oʻrtadi bir yoʻl,

Ul gʻunchai xandon.

Ulgul yuzini ishqida men volayu hayron,

Ul zulfi parishon.

matlai bilan boshlanuvchi mustazoddan toʻrt bayt keltiradi.

Mashrabning soʻnggi 2006 yilgi devoniga 4 ta murabasi kiritilgan. Bu janr xalq mumtoz adabiyotining eng goʻzal sheʼriy janri hisoblanib, uning yengil va oʻynoqi ohangi ashulaga ayniqsa, maqom kuyiga mos tushadi. Biz koʻp hofizlar tomonidan ijro etilgan “Yorga yetar kun bormu, yoronlar” ashulasi juda mashhur boʻlib ketganligini bilamiz.

Muxammas klassik poeziyadagi lirik sheʼr shaklaridan biri boʻlib, u besh misradan tuzilgan bir necha banddan tashkil topadi. Uning birinchi bandidagi misralarining hammasi oʻzaro bir xil qofiyalanadi, keyingi bandlarning toʻrt misrasi esa alohida, beshinchi misralari esa dastlabki bandning beshinchi misrasi bilan qofiyalanadi, yaʼni uning qofiyalanish tartibi a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a shaklida boʻladi.

Shuni taʼkidlamoq kerakki, Mashrabning 1990 yilda va 2006 yilda chiqqan devonlarida uning muxammaslari oʻzga shoirga taxmis yoki tazmin bilan bagʻishlangan emas, balki mustaqil muxammas, taʼbi xud muxammaslardir:

Ishqingda yonmas oshiq devona boʻlmagʻuncha,

Shaʼmingga quymagay ul parvona boʻlmagʻuncha,

Bogʻlab belin bu yoʻlda mardona boʻlmagʻuncha,

Boshgʻa olib malomat afsona boʻlmagʻuncha,

¹ Н. Хатамов. Б.Саримсоқов. Адабиётшунослик терминларининг русча – ўзбекча изоҳли луғати. - Т.: “Ўқитувчи”, 1979. -Б. 194.

Sevmas sadafni sarrof durdona bo‘limg‘uncha.

Ye. E. Bertelsning fikricha fors-tojik klassik she‘riyatida musammat dastlab XI asr shoiri Manuchehriy va Qatron Tabriziy ijodida ko‘rinadi¹. XII-XIII asr shoirlarida, masalan, Sa‘diyda keng rivojlangan. Biroq shuni ta‘kidlash lozimki, musammatning ildizlari yozma she‘riyatdan ancha ilgari xalq ijodida paydo bo‘lgan edi. Xuddi shuningdek holatni turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham ko‘rish mumkin.

Mashrabning keyingi devoniga yettita musaddas kiritilgan va ular hajman salmoqli she‘rlardir.

Musammatlar ancha keng tarqalgan lirik janrlardan bo‘lgani sababli ham Ye. E. Bertels, A. Hayitmetov, R. Majidiy, M. Gulizoda singari adabiyotshunos olimlar unga katta e‘tibor berganlar va muhim nazariy fikrlarni bildirganlar. Ularning asarlarida musammatning to‘la va atroflicha ta‘rifi berilmagan bo‘lsa ham, u yoki bu munosabat bilan musammatga xos bo‘lgan g‘oyaviy-tematik va formal-poetik jihatlar birmuncha yoritilgan².

Musabba-musammat tarkibidagi janrdir. Musabba-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a-a-v-v-v-v-v-a-a va hokazo tarzida qofiyalanadi. “Devon”ga Mashrabning ikkita musabbasi kiritilgan.

“Ey g‘unchai navxezi gulistoni malohat” misrai bilan boshlanuvchi musabbasi bugungi kunda o‘zbek xalqining eng sevimli ashulasi bo‘lib, uni hofizu xonandalar maromiga yetkazib kuylashadi.

Mashrab «Devon”ida bitta musamman bo‘lib, bu sakkizlik hajman salmoqli she‘riy asardir.

Bobning uchinchi fasli “Tajriba – sinov ishlari va ularning natijalari tahlili” debnomlangan.

Talabalarining Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida ma‘naviy – axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojidagi o‘rnini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tartibda o‘tkazilgan:

1. Aniqlash va tayyorgarlik bosqichi (2020-2021 yy). Ushbu bosqichda tadqiqotni amalga oshirish rejasi tuzildi, tajriba-sinov maydonlari aniqlab olindi. Talabalarining Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida talabalarining ma‘naviy – axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojidagi o‘rnini o‘rganishdagi normativ-huquqiy baza, o‘quv dasturlar namunalari tahlil qilindi, faraz shakllantirildi. Bu bosqichda talabalarining Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritishga doir yo‘nalishlar va mezonlar belgilab olindi. Tadqiqot muammosiga doir talabalarining bish darajalari dastlabki nazorat ishlari orqali aniqlandi.

¹ Е. Э. Бертельс. История персидско-таджикской литературы. Москва. “Наука”, Стр. 360.

² О. Носиров, С. Жамолов, М. Зиёвуддинов. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. –Б. 113.

2. Amalga oshirish bosqichi (2020-2021 yy). Talabalarning Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida ma’naviy – axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojida o‘rnini o‘rganish modeli ishlab chiqildi va sinovdan o‘tkazildi. Modelni samarali amalga oshirishda pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi innovasion boshqaruvni rivojlantiruvchi texnologiyalar belgilab olindi. Talabalarning Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida ma’naviy – axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojida o‘rnini o‘rganish bo‘yicha Jizzax davlat pedagogika universiteti (209 nafar), Namangan davlat universiteti (204 nafar), O‘zbek tili va adabiyoti universiteti (207 nafar) jami 620 nafar talabalar ixtiyoriy tanlab olindi. Tanlab olingan guruhlar tajriba(TG) va nazorat(NG) guruhlariga ajratildi.

3. Yakunlovchi bosqichi (2022 y). Tajriba-sinov ishlari natijalari sarhisob qilindi, yakuniy diagnostik tashxislar o‘tkazildi, natijalar qayta ko‘rib chiqildi, tajribadan o‘tkazilgan ma’lumotlar tizimlashtirildi va ish natijalari rasmiylashtirildi.

1-jadval.

Tanlab olingan guruhlar va respondentlar soni

Hudud	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami
Jizzax davlat pedagogika universiteti (JDPU)	104	105	209
Namangan davlat universiteti (NamDU)	101	103	204
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti (TDO‘TAU)	103	104	207
Jami:	308	312	620


O‘tkazilgan tajriba-sinov natijalariga asoslangan holda Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida ma’naviy – axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojida o‘rnini o‘rganishning samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarini Studentning matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda jami 620 nafar tinglovchilar qatnashib, tajriba guruhmda 308 nafarni va nazorat 312 nafarni tashkil etdi.

Ijtimoiy – pedagogik fikrlar negizida ma’naviy – axloqiy kamolotini takomillashtirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g‘oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojida o‘rnini o‘rganishning samaradorlik darajasi natijalarini quyidagi jadvalda aks ettiramiz (2-jadval.)

Barcha OTM talabalarining yakuniy bosqich natijalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Guruhlar	soni	a'lo	yaxshi	qoniqarli	qoniqarsiz
			5	4	3	2
Nazariy bilimlarni o‘zlashtirish	TG	308	56	137	113	2
	NG	312	28	62	181	1
Ijodkorlik-kreativlik	TG	308	60	130	116	2
	NG	312	28	67	174	3
Shaxs sifatida jur'atkorlik va irodaning kuchliligi	TG	308	58	136	111	3
	NG	312	29	70	169	44
Tashabbuskorlik va va mustaqillikni namoyon qila olish	TG	308	60	138	110	0
	NG	312	27	73	175	37
Diniy mutaassiblikka qarshi kurashuvchanlik	TG	308	59	144	105	0
	NG	312	27	73	173	39
Adolatparvarlik, hurfikrlilik, rostgo'ylik	TG	308	60	150	97	1
	NG	312	28	78	167	39
Barkamol inson bo‘lib yetishishga qat‘iyat bilan intilish	TG	308	60	151	96	1
	NG	312	29	80	161	42
Etik va estetik his-tuyg‘ularga egalik	TG	308	64	150	92	2
	NG	312	30	75	170	37
Mezonlar bo‘yicha umumiyasi	TG	308	60	142	105	1
	NG	312	28	72	171	40

Ushbu natijalarni mos holda diagrammalarda ifoda etsak quyidagi ko‘rinishni oladi (1-rasm).



1-rasm. Barcha OTM talabalarining kuniy bosqich natijalarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

Olib borilgan tadqiqot ishida talabalarning Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish tizimida Boborahim Mashrabning umuminsoniy va insonparvarlik g'oyalari mohiyatini yoritish, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojidadagi o'rnini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan matematik statistik tahlillar natijalari tajriba yakunida olingan natijalar bilan taqqoslaganda bilish darajasi tajriba oxirida yuqori ekanligi kuzatildi, shuningdek, jahon pedagogik tafakkuri rivojidadagi o'rnini o'rganish bo'yicha bilish darajasi tajriba yakunida 1,17 barobarga, ya'ni 17% ga yuqoriligi matematik statistik usullar bilan isbotlandi.

XULOSA

Ijtimoiy-pedagogik fikrlar negizida talabalarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash tizimini shakllantirish (Boborahim mashrab asarlari misolida)mavzusidagi doktorlik dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. XVII – XVIII asrlar Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim – tarbiya, maktab, fan va madaniyat rivoji haqida xulosa qilinganida temuriylar, shayboniylar yashab o'tgan davrga nisbatan ashtarxoniylar davrida birmuncha turg'unlik, ba'zi soxalarda ortga ketish, depsinish holatlarini kuzatish mumkin.

Pedagogika tarixi darsliklarida ba'zi o'rinlarida XVII asrdan XIX asrga o'tib ketish, bo'shliq borligi holati kuzatildi. Faqat ta'lim tizimida So'fi Olloyor kabi mudarris adiblarning asarlari madrasai oliyalarda o'rganganligiga urg'u beriladi. Shu bilan birga Qur'on karim, hadis shariflar ham chuqur o'qitilganligi ta'kidlangan. Shuningdek, davr pedagogikasi ravnaqi va taraqqiyotiga hissa qo'shgan hokimlar, beklar, ulkan me'moriy obidalar yaratgan kosib va hunarmandlar, ustalar, chimyonlik Xojamnazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydo, xalqni otashin she'riyati bilan bahramand etgan namanganlik Boborahim Mashrab ijodi ko'zga tashlanadi.

2. O'zbek shoiri va allomasi, pedagog mutafakkiri Boborahim Mashrabdan juda katta ilmiy meros qoldi. Bu meros uning g'azaliyoti, shoirning mustazodlari, murabbalari, muxammaslari, musaddaslari, musabba'lari, musanmanlari, masnaviy, fard, to'rtliklaridir.

Uning she'riy merosini 1990 yil xatirchilik Jaloliddin Yusupov "Mehribonim qaydasan" majmuasini so'z boshisi bilan chop ettirgan bo'lsa, 2006 yil "Devon" nashr etildi. Jaloliddin Rumiyo'ldan borib, "Ma'naviy masnaviy"ga javoban "Mabdai nur" she'riy asarni yaratgan. Ta'kid etmoq kerak, bu asarlar mustaqillik davrida yana chop etilib kelinmoqda. Mashrabning "Kimyo" axloqiy – ta'limiy asaridan tashqari "Qissai Vaysul – Qaraniy", "Qissai Me'roju Rasuli akram (s.a.v)" kabi manzumalari borligi aniqlandi.

Garchi, shoir asarlari taraqqiyotimiz o'zgalar tomonidan boshqarilgan yillarida keskin ta'qiqlangan bo'lsa –da, u haqda "Tazkirai qalandaron", "Qissai Mashrab"lar xalqimiz tomonidan nafaqat Markaziy Osiyoda, balki xorijda, Yevropaning ko'plab mamlakatlari Fransiya, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Amerikada ham ardoqlanib, o'qib kelingan.

3. Asli bog'istonlik, Ishoq Bog'istoniy "Tazkirai qalandaron" tazkirasida Mashrabning qirq qalandar bilan juda ko'p yurt va mamlakatlarni kekgani,

she'riyatini targ'ib qilganliklari, Qabodiyonda So'fi Olloyor bilan uchrashuvlari, Balx va Qunduzga borishi va Mahmud qatag'onbiy bilan shiddatli to'qnashuvi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, shoirning turli janrdagi she'rlari, xususan, g'azallari rivoyatlarga chulg'angan va hikoyatlarga mos holda "qissa"ga singdirib yuborilgan. Mashrab xalq ommasi tomonidan izzat – hurmat bilan kutib olingan, undan el – ulus, omma otashin g'azallar eshitgan, tanburi bilan o'z g'azallarini ashula qilib, aytib bergan. Shoir siymosining "Qissai Mashrab"da yoritilishi mavzusiga xulosa qilinganda, undagi rivoyat va afsonalarning hammasi shoir siymosini yaratishda zarur asar ekanligini qayd etmoqchimiz. Qissaning ommabop va hammabopligi, jamiyat turli qatlam va tabaqalari tomonidan tez qabul qilinishi va xotirada saqlanishi bilan, o'qimishlilik, nazm va nasr namunasi bilan qorishib ketganligi, badiiyatining jozibas, xalqchilligi, milliy – ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unligi, mazmun va mohiyatida yanada chuqur mantiqiy fikrlar borligi bilan qimmatli asardir.

4. Mashrab axloqiy qarashlaridagi ta'limotlar avvalo payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning go'zal axloq egasi ekanliklaridan, Xoja Ismoil al – Buxoriyning muborak hadis shariflaridan, Amir Temurning axloqiy qarashlaridan, Alisher Navoiyning insoniy fazilatlar tarannumi bilan axloqiy – ta'limiy, pedagogik qarashlaridan ibrat olganligini e'tirof etadi. U ota – onani rozi qilish, Allohni rozi qilishdir degan fikrni ilgari surib, ota -ona g'azabiga uchragan odam, Allohning g'azabiga uchrash bilan tengdir degan, g'oyani ta'kidlaydi. Ota rozi – Xudo rozi konsepsiyasini ta'kidlab, inson otadan iymonni o'rganishini uqtiradi. Shuningdek, onaning maqomini yuqoriga olib, barcha yaqinlarga munosabatni ham yaxshi tomonga yo'naltirishni, farzand ular oldida o'zini g'ulom (qul) dek tutishligini uqtiradi;

5. Shoirning insoniy fazilatlar haqidagi g'oyalari haqida fikr yuritilganda, Mashrab, salaf Yassaviy va Navoiylarning ijodidan ibrat olganligi, jamiyatdagi razolat, qabohat, jaholatning ziddi bo'lgan insof, adolat, diyonat kabi insoniy fazilatlarni ulug'lagan.

Mutafakkir har qanday kishining piri komili bo'lishi, botiniy qalbi toza bo'lishini, inson oriflik va komillik sari intilishini, nafsga berilmaslikni, o'zligini yo'qotmasligini, jismi, vujudi pok bo'lishi bilan birga "o'zi pok, so'zi pok" bo'lishini ta'kidlagan. N. Komilov ta'riflagan oshiqning (Allohning oshig'i) ta'b nozikligi, uning so'z va ifoda nozikligi, zavq va idrok nozikligi, fe'lning yumshoq va latif bo'lishi ham so'fiy qalbining pokligidan nishonalardir. Mashrab insoniy fazilatlarni Atoyi, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Ofoqxoja kabi ulug' so'fiy pirlardan o'zlashtirgan. Ilohiylikni ularning asarlaridan topgan mutasavvif zot edi;

6. Mashrab merosida komil inson muammosi barcha turkiy xalqlar milliy adabiyotining va pedagogikasining umumiy yo'nalishi, taraqqiyotida muhim omillardan biri bo'lib, inson ongi va tafakkuri, rivoji, uning kamolotiga bevosita ijobiy ta'sir etib keldi. Shu bois bo'lsa kerak, Movarounnahr xalqlari milliy adabiyoti namoyandalari keyingi asrlar pedagogik adabiyotining barcha vakillari ham Navoiy va Mashrab ma'naviy merosidan bahra oldilar, ularni ustoz deya qabul qildilar va ular bilan faxrlandilar. Barkamol inson tarbiyasida ularning asarlariga murojaat qilib, ijodiy tajriba, yuksak namuna va ibrat olib, Navoiy va Mashrab kabi

umrboqiy she'riyat yaratishni sharaf deb bildilar. Navoiy , Bobur, Mashrab g'azallariga nigoh tashlanganda, ulardagi mushtarak jihatlarni anglash qiyin emasligi ayon bo'ladi.

7. Mashrab ijodida ma'rifiy fikrlar haqida xulosa qilinganda, adabiyotshunos pedagoglar N.Komilov, I. Haqqul, B.Do'stqorayev, N.Jumaxo'ja va boshqa munaqqidlar totalitar tuzum davridagi sinfiylik nuqtai nazaridan ko'ra, zamonasozlikdan xoli mustaqillikdan keyin uning ijodi tor doirada emas, balki xolisonalik ruhida o'rganilayotganligini ta'kidlashgan.

Mashrab Markaziy Osiyoning deyarli hamma shahar va muzofotlarini kezgan, xalqning ijtimoiy ahvolidan xabardor bo'lgan, ularni ma'rifatga, ilmga chorlab, o'tli g'azallar bitgan. Uning she'rlari xalqchilligi, jaholat va bid'atga qarshi kurash g'oyalarini kuchayishida, she'riyatning takomillashuvi va badiiyatning kamolga erishuvida muhimligi bilan betakrordir. U o'zbek pedagogikasi tarixida ma'rifiy fikrlari bilan o'ziga xos maktab yaratgan shoir va boy meros qoldirgan ulug', ustoz muallimdir. U "Faqirlar shohi, "Surati bashar, siyrati malak" sheriyaatdagi maqomi "Qudsiy kalom, haqiqat qidirgan zot", uning devonaligi zamirida esa eng oliy ma'rifatga erishgan zot timsoli mujassam edi.

8. Mashrab ijodida didaktik qarashlar talqini xususida, uning ilm – fan, ta'lim – tarbiya, pand – nasihat, axloq, ibrat, namuna bo'lish haqidagi g'oyaviy qarashlari, o'g'itlari toat – ibodat, tavba – tazarru, istig'for va munojot, Allohga doim sajda qilish kabi ta'limiy- axloqiy, didaktik g'oyalar bilan sug'orilgan: Barchalar yondi gunohdin, manki yonmasman hanuz, - deya foniy dunyoda avliyolardek muazzam komil inson bo'lay desang, Haqqa faqat tavba qilib, istig'for ayt deya, - ta'lim bergan: "Mashrabo, hech kanda qilma dildin istig'forni".

Mashrabning ijtimoiy – ma'naviy va didaktik qarashlari xulq – odob, ta'lim – tarbiya, pand –nasihat tarzidagi g'azallari falsafiyligi, badiiyliigi bilan bugungi pedagogika tarixi fani talablariga javob bera oladi.

9.Mashrab ijodining xorijda o'rganilishi va o'rta maktablarda shoir she'riyatining janr xususiyatlari haqidagi ta'limotlarni o'rganish metodikasi haqidagi xulosalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy, Xojamnazar Huvaydo va Boborahim Mashrab hayoti , faoliyati, xorij universitetlarida, xususan, Germaniya, AQSH, Fransiya, Rossiya, Turkiya olimlari tomonidan o'rganilgan. G'arb, Yevropa – fransuzlar, nemislar XIX asrdayoq Herman Vamberi, Ditrel de Renn, Berner Grener, Yoxannes Avetarannanlar shug'ullanishgan.

Yevropa olimlari N.I.Veselovskiy, N.S, Likoshin, V.L.Vyatkin, N.P.Ostroumov, M.A Salye, A.E.Shmidt mashrabshunoslik fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Germaniyalik Martin Xartmann 1902 yil "Devonai Mashrab", "Shoh Mashrab" asosida "Mashrab – dono telba va avliyo dahriy" ilmiy asarini yozgan. Namanganlik Mashrab tadqiqotchisi Muso Todjixo'jayev shu xususda ilmiy tadqiqot ishi e'lon qilgan. Turkiyada Mashrabning "Mabdai nur" asari turk tilida chop etilgan. Mashrab asarlari ingliz tiliga ham sharqshunos olim Edvard Olvort tomonidan tarjima qilinib, G'arbda qiziqish bilan o'qilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, "Qissai Mashrab" arab, yahudiy, Yevropa xalqlari tillariga tarjima qilinib, umumjahon adabiyotining betakror mulkiga aylangan.

10. Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida tojik, qirg'iz, qozoq, turkman, shuningdek, kavkaz, eron, arab, hind adabiyotida she'riyatning janr xususiyatlari, lirikaning janrlari mustazod, murabba', g'azal, masnaviy, muxammas, musaddas, xamsa, ruboiy, tajnis, tazod, fard kabi turlar o'rganib kelingan. Bu an'ana Alisher Navoiy, So'fi Olloyor, Xojam Nazar Huvaydo va Boborahim Mashrab tomonidan rivojlantirilgan. O'zbek adabiyotidagi mumtoz murabba (to'rtlik), muxammas (beshlik), musaddas (oltilik), musamman (sakkizlik)lar keng tarqalib, bu janrlarda Mashrab ham sermahsul ijod etgan. Barcha turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek adabiyoti tarixida bu janrlarda rango – rang she'riyat durdonalari yaratilgan. Ye.E. Bertels, A. Hayitmetov, R. Majidiy, M. Gulizoda fikrlariga tayansak, Mashrab musaddas, mustazod janrlarida hatto, Navoiydan ko'ra ko'proq asarlar yaratganliklari ma'lum bo'ladi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga Mashrab she'riyatining janr xususiyatlarini o'rgatish va singdirish pedagog o'qituvchilarning amaliy ishlari ekanligiga shubha bildirilmaymiz.

Yuqorida keltirilgan xulosalarga asoslanib, quyidagi amaliy taklif va metodologik tavsiyalar berildi:

1. Namangan shahrida “Mashrab bog'i” bunyod etilishi maqsadga muvofiq.
2. Toshkent shahrida “Adiblar xiyobonida” Mashrab haykalini o'rnatish.
3. Namangan viloyatida “Mashrab xalqaro fondi” tashkil etish
4. Globallashtirilgan davrning xususiyatlari va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy o'quv yurtlarida, “Mashrabning pedagogik qarashlari” bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalarida shoir asarlari asosida targ'ibot ishlarini amalga oshirish.
5. Xorijiy davlatlar kutubxonalarida saqlanayotgan Mashrab ijodiga doir manbalarni to'plash (xususan, Turkiya – To'pqqopi), Fransiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya (Sankt – Peterburg) kutubxonalaridan shoir asarlari faksimiliyalarini O'zbekistonga keltirish.
6. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan Mashrab asarlari qo'lyozmalarini tadqiqot ko'lamini kengaytirish.
7. Mashrab tavalludi va vafoti mavzusida juda ko'p har xillilikni bartaraf etish maqsadida aniq fikrni ilgari suramiz. Mashrab 1653 yil tug'ilganligini hisobga olsak, u 1711 yil 22 may kuni Balxda 58 yoshida dorga osib o'ldirilgan, shoir vafotiga 311 yil, tug'ilganiga 369 yil bo'lganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/04.06.2020. Ped.113.01 ДЖИЗАКСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА,
ПРИСУЖДАЮЩИЙ УЧЁНЫЕ СТЕПЕНИ**

**ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХОШИМХАНОВ МУМИН

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДУХОВНО-
ПРАВСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ
СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ
(на примере произведений Бабарахима Машраба)**

13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирован за номером V2020.3.PhD/Ped1736 в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Докторская диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.jdpu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Туракулов Холбута Абилович

доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Йулдошев Козокбой Бойбекович

доктор педагогических наук, профессор

Ярматов Рахим Бахрамович

доктор педагогических наук, профессор

Тайлонова Шохид Зайниевна

доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета Джизакского государственного педагогического университета, присуждающего учёные степени за номером PhD. 03/04.06.2020. Ped.113.01 «_____» _____ 2023 г. в _____. (Адрес: 130100, г. Джизак, пр. Ш. Рашидова, д. 4. Тел.: (872) 226-13-57, 226-21-73, факс: (872) 226-46-56; e-mail: jdpu_info @ umail.uz Джизакский государственный педагогический университет, главный корпус, 2 этаж, лекционный зал.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Джизакского государственного педагогического университета (зарегистрирован за номером ____). (Адрес: 130100, г. Джизак, пр. Ш. Рашидова, дом 4. Тел.: (872) 226-13-57; 226-21-73 факс: (872) 226-46-56.

Автореферат диссертации распространён «_____» _____ 2023 года.
(2023 "_____" электронная регистрационная выписка от _____ от _____).

О.Х.Туракулов

председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
д.т.н., профессор

Н.Х.Кушвактов

секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.п.н., доцент

А.Т.Нурманов

Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
к.п.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В последнее время в мире стала актуальной разработка системы конструктивных нравственных общечеловеческих ценностей, отвечающих требованиям совершенствования духовно-нравственного облика народов мира, стандартизации процесса интернациональной культурной трансформации, возведение общечеловеческих ценностей в высокий статус, объединение человечества к единой цели и направление их к взаимной гармонии. С этой точки зрения, в происходящем в мире процессе глобализации, в борьбе с пороками общечеловеческого характера, такими как духовная нищета и нравственный нигилизм, должен сочетаться принцип преемственности и современности, в том числе совершенствуя систему обеспечения духовно-нравственной зрелости учащихся на основе социально-педагогических идей, с новшествами современной эпохи потребность в синтезе становится педагогической потребностью.

Научные изыскания и исследования, проводимые в мировой педагогике, ценны и значимы, так как дают научную информацию по таким вопросам, как роль религиозно-этического, социально-философского, педагогического мышления в творчестве Машраба. В XVII-XVIII вв. развитие науки на территории Мовароуннахра достигло многих стран Европы, а также Соединенных Штатов Америки, и масштабы этих исследований уникальны для развития мирового машрабоведения тем, что наследие Бабарахима Машраба связано с общечеловеческими ценностями и внедряются в сферу образования.

Повышение социального воздействия духовно-нравственных ценностей в нашей стране, воспитание учащихся и молодежи на основе самосознания, национальных и общечеловеческих идеалов важно, поскольку является одним из важнейших и актуальных вопросов любой эпохи. Повышение внимания к социально-духовному наследию великих мыслителей Востока в эпоху третьего Ренессанса знаменательно благодаря их вкладу на территории Мовароуннахра в развитие мировой общественной науки, а также в развитие педагогики. Бабарахим Машраб, ученый, мыслитель, наставник, поэт-творец, живший и работавший в Мовароуннахре, его духовное наследие ценно в мировой цивилизации, в освещении с научной точки зрения сути таких идей, как гуманизм и нравственные ценности, воспитание совершенного человека.

Данное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «Стратегия действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № УП-6017 от 2020 года «О мерах по коренным преобразованиям Государственной молодежной политики в Республике Узбекистан и выведении ее на новый уровень», Постановлении ПП-6108 от 6 ноября 2020 года «О мерах по развитию сфер образования и науки в период нового развития Узбекистана», ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О сохранении древних письменных источников, исследованиях и о мерах по дальнейшему

совершенствованию системы популяризации», решения ПП-3080 от 23 июня 2018 года «О мерах по установлению Центра исламской цивилизации в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан», а также ПП-3271 от 13 сентября 2017 г. - номер «О развитии системы издания и распространения книжной продукции, повышении и популяризации книжного чтения и культуры чтения», ПП-2894 от 18 апреля 2017 г. «Об организации Аллеи писателей в национальном парке имени Алишера Навои» и других нормативных правовых документах, касающихся сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики: Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Социально-правовое, экономическое, культурно-духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации¹. Ведущие мировые научно-исследовательские центры и высшие учебные заведения входят в число ведущих мировых научно-исследовательских центров и высших учебных заведений по вопросам мистицизма, этики, самосознания, духовного наследия мистиков, внесших большой вклад в восточную цивилизацию, изучение духовного наследия с современной точки зрения, их вклада в развитие педагогической мысли стран Востока как общечеловеческой ценности и их места в мировой цивилизации, в частности, Indiana University of Bloomington(USA), University of Harvard, University of California, University of Michigan, Universitat Bonn (Germany), University of Oslo (Norwegian), University of Vienna (Austria), University of Western (Канада), Institute of Central Asia (Франция), Al-Ashar University (Миср), Istanbul Universiteti (Турция), Институт Восточных рукописей РАН (Россия), Казанский федеральный университет (Казань), Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами Гянджеви, Джизакский государственный педагогический университет имени Абдуллы Кадыри (Узбекистан).

